

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

Magistratura bo'limi

Qo'lyozma huquqida

UDK:

TO'YBOYEVA SHAHNOZA RAMAZONOVNA

**LA CONSTRUCTION BINAIRE ET MISE EN RELIEF
DANS LE DISCOURS
(OG'ZAKI NUTQDA BINAR KONSTRUKSIYA VA
AJRATILGAN BO'LAK)**

Mutaxassislik: 5A120102 Lingvistika (fransuz tili)

Magistrlik darajasini olish uchun yozilgan

DISSERTATSIYA

Ilmiy rahbar:

f.f.n., dots. Bobokalonov R.R.

Dissertatsiya Buxoro davlat universiteti Xorijiy tillar fakulteti Nemis va
fransuz tillari kafedrasida bajarilgan

Ilmiy rahbar: f.f.n., dots R.R. Bobokalonov

Kafedra mudiri:

Magistratura bo'limi boshlig'i:

f.-m.f.f.d.(PhD) A.A To'rayev

MUNDARIJA

KIRISH	3
I BOB SISTEM TILSHUNOSLIKDA SODDA GAP QURILISHI.	
1.1. O'zbek sistem tilshunosligida sodda gap qurilishi talqini.	11
1.2. Sodda gapning tarkibiy qismlari.....	17
1.3. Grammatik shakllangan gaplarning eng kichik lisoniy sinaktik qolipi.....	21
1.4. [WPm]= [WP] – sodda gapning eng kichik qurilish qolipi sifatida.....	28
1 bob bo'yicha xulosa.....	35
II BOB SODDA GAP QURILISHIDA BINAR QURILMALI GAPLAR VA AJRATILGAN BO'IAKNING IFODALANISHI.	
2.1. Fransuz tilida binar qurilmali nutqiy hosilalar to'g'risida.....	37
2.2. Fransuz tilida binar qurilmali gaplarning semantik-struktur talqini.....	43
2.3. Ajratilgan bo'lakli gaplarda binar konstruksiyaning ifodalanishi.....	51
2 bob bo'yicha xulosa.....	55
III BOB. FRANSUZ VA O'ZBEK TILLARIDA BINAR QURILMALI GAPLAR VA AJRATILGAN BO'LAKNING QIYOSIY TAHLILI.	
3.1. Binar qurilmali gaplar va ularning o'zbek va fransuz tilida ifodalanishi..	56
3.2. Ajratilgan bo'lakning nutqda ifodalanishi.....	72
3 bob bo'yicha xulosa.....	81
XULOSA VA TAKLIFLAR.....	82
FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI.....	83
ILOVALAR.....	87

KIRISH

O'zbek tilimiz mustaqillikka erishganimizdan so'ng mafkuraviy asoratlardan qutulgan bo'lsada dunyo miqyosida o'z mavqeini, o'rnini topishi uchun ancha mehnat va samara talab etadi. Tilshunoslarimizning bugungi yutuqlariga nazar tashlar ekanmiz, ularning ilgarigi tuzum yo'nalishidan tubdan farqlanib borayotganiga guvoh bo'lamiz. Ayniqsa, Markaziy Osiyo davlatlari o'rtasida o'zbek tilshunoslari tilshunoslikning barcha yo'nalishlarida ijobiy natijalarga erishishdi. O'zbek tili bilan xorijiy tillarni qiyoslab o'rganish maktablari yaratildi. Hozirda esa qiyosiy-tipologik, sintaktik aspektda yechimi kutilayotgan ishlar ko'lamini juda ko'p. Shulardan biri sifatida nutqiy hosilalarning alohida turi – binar qurilmali gaplar tadqiqi muammosidir. Bunday gaplar haqida to'xtalishdan oldin gapga ta'rif berishni joiz deb topdik.

Gap nutqiy hodisa sifatida g'arb tilshunosligida ancha ilgari o'z ta'rifini topgan edi. Chunonchi, V.A. Admoni fikricha, gapning yetti aspekti mavjud:

- 1) gapning mantiqiy-grammatik aspekti;
- 2) modallik aspekti;
- 3) fikr tugalligi aspekti;
- 4) gapning nutqiy holatidagi o'rni aspekti;
- 5) gapning qurilish shakli aspekti;
- 6) gapning emosionallik aspekti;
- 7) gapning kommunikativ maqsadi aspekti.


Tilshunos-olim predikativlik gapning mantiqiy grammatik, va qurilish shakli aspektlarida namoyon bo'lishini ta'kidladi. Shu sababdan u predikativlikni ega va kesim (qurilish darajasiga ko'ra), hodisa va voqelik (kommunikativlik maqsadiga ko'ra), shuningdek, subyekt va predikat (mantiqiy, hissiy-emosional va ma'noviy holatiga ko'ra) ning o'zaro hukm (logik) munosabati asosida belgilashni ma'qullovchi-nazariyotchilarning biriga aylandi. Uning nazariy qarashlarida

predikativlik, ya'ni mantiqiy hodisa bilan grammatik hodisa qorishtirib ta'riflandi. Shu tarzda g'arb tilshunosligida hozirgacha gapning ikki tarkib

(“Ega-kesim”) dan iborat bo’lishi, egasiz gaplarning bo’lishi mumkin emasligi haqidagi ta’limot – subyektning hokimligi, predikatning unga tobeligi bilan, ya’ni mantiqiy hukm bilan mustahkamlandi. Shuning uchun dastavval, o’zbek tili sintaksisini o’rganishda ham ega yo’nalishi bosh yo’nalish qilib qabul qilindi. Shu asnoda prof. A.G’ulomov, G’.Abdurahmonov, M.Asqarovalarning tadqiqot ishlarida sodda va qo’shma gaplar haqidagi mukammal ta’limot ishlab chiqildi. Sodda gapning sintaktik qurilishi rus tilshunosligi negizida yaratilgani bois gapning minimal qurilishi ikki bosh bo’lak (ega va kesim)li degan yondashish, sodda gap qurilishi talqinida tayanch yo’nalish mavqeini kashf etdi. Qo’shma gap sintaksisi ham shu yo’nalishda o’z rivojini topdi.

XX asr oxirlaridan ayrim tilshunoslar sistem-struktur tilshunoslik talablarini yoqlab, turkiy tillar uchun gapning eng kichik qurilish qolipini kesimlikda ko’rishni taklif qilishdi. Qator ilmiy ishlarda (M.Abuzalova, Sh. Akramov, M.Bohmonov, Z.Eraliyeva, B.Mengliyev, L.Raupova, R.Sayfullayeva va boshqalar sodda va qo’shma gaplarni o’rganishda) shunga amal qilindi.

M.Abuzalova [WPm]



atov birligi kesimlik ko’rsatkich

larini “shakl-vazifaviy talqin bo’yicha soda gapning eng kichik qurilish qolipi” deb baholab, unbing nutq sharoitida minglab muayyan shakllarda yuzaga chiqishini ta’kidladi: “[WPm] gapni o’rganish uchun til sathidagi eng kichik qolip hisoblanadi va u gapning “*joni”dir*”,-deya, muallif sodda gapning xuddi mana shu lisoniy qolipi o’zining modal, shaxs-son, zamon va makon kengaytiruvchilari bilan morfologik

kategoriya sanalib, kesimlik kategoriyasi sifatida tan olinishiga hech kim monelik qilmasligini ta’kidlaydi. Mazkur ish izidan R.Bobokalonov, H.Nematov, L.Raupovalarning so’z -gaplar, aniqrog’i, semantik-funksional shakllangan so’z-gap (qisq. SFSHSG) lar muammosi ham o’z yechimini topdi .

Biz shunga muvofiq, tizimga solinmagan binar qurilmali gaplarning xususiyatlari, ularning nutqda ifodalanishi, badiiy adabiyotlarda qay tarzda ifoda etilganligini sistem-struktur tilshunoslik nuqtai-nazaridan tadqiq etishni lozim deb topdik. Shunday qilib,

1. O'zbek tilidagi gaplarning qurilishi:

- a) Grammatik shakllangan gaplar (GSHG)
- b) semantic-funksional shakllangan gap (SFSHG) ларга;

2. Fransuz tilida esa:

a) tipik b) atipik gaplarga ajratiladi. Fransuz tilida gap qurilishi atipik hodisa sifatida kanonik model bilan izohlanadi va tipik gaplarga nisbatan ziddiyatga qo'yiladi.

Biz tadqiqot ishimizning asosiy mavzusi sanalmish binar konstruksiyani aynan ana shu kanonik modeli gaplar tarkibiga kiritamiz. Dastlab, kanonik model to'g'risida to'xtalib o'tsak.

Funksional jihatdan har ikki tilda ham bunday gaplarning sintaktik tizimi, vazifa bajarishi gap markazida kela olishi bilan bog'liq muammolar leksik-semantik va funksional-sintaktik jihatdan to'laqonli o'z yechimini topmagan. Kanonik modeli atipik gaplarni o'zbek tilidagi WP qurilishli SFSHSGlar bilan qiyoslash, nutqiy hosilalarning o'sib borishini, tabiatini, leksik-semantik xususiyatini o'rganish, ularni tizimga solish va chegaralarini belgilab olib, nazariy va amaliy jihatdan fikr yuritish mumkin.

Alohida tadqiqot oldiga qo'yilgan muammoli masalalarni yechimini topish uchun ham qiyosiy-tipologik aspektda har ikkala tillardagi o'ziga xosliklarni aniqlashtirish, nutqiy va lisoniy hodisalarni farqlash, tizimning kommunikativ tamoyillarini o'rganish va yaratish, ularni struktur ta'limot asosida tahlil qilish tanlangan mavzuning oldiga qo'yilgan bosh maqsaddir.

O'zbek tili sintaktik qurshovida SFSHSG larning ma'no imkoniyatlari chegaralanganligi, o'zida grammatik shakl talab etmasligi, boshqa so'zlar (va gap bo'laklari) bilan semantik jihatdan aloqaga kirishish qobiliyatidan mahrumligi, ular gap bo'lagi sanalmasligi va gapdagi bo'laklar bilan

bog'lanmasligi singari belgilari aniqlashtirilgan. Fransuz tilida esa bu belgilar turlicha aralash va farqli ravishda kuzatiladi. Shuningdek, SFSHG lar tarkibida uchramaydigan ammo shularga yaqin turadigan *binar konstruksiyali gaplar kanonik modeli* (alohida o'ziga xos qurilish) gaplar tarkibiga kiritiladi.

SFSHG lardagi xos xususiyat shundaki, [WPm] – tipik gaplar ifodalagan morfologik ko'rsatkich moddiy shaklda ifodalanmaydi. Bunday gaplar [Pm] ga xos bo'lgan har xil ma'nolarni qabul qila olmaydi. Buning asosiy sababi bunday gaplarda mayl//zamon, tasdiq//inkor, hatto shaxs//son ma'nolari gap sifatida voqelanuvchi so'zning leksik ma'nosida mujassamlashgan bo'ladi, ya'ni SFSHG larda ham tasdiq//inkor, mayl//modallik, zamon va shaxs//son ma'nolarining mavjudligi e'tirof etiladi. Chunki nutqimizda shunday gaplar borki, ularning tarkibida kesimlik belgilari va kesimlik qo'shimchalarining moddiy ko'rinishlarini ko'rinmaydi, ammo semantik nuqtai nazardan mavjudlik seziladi. Har bir gapning o'z qolipi mavjud bo'lgani kabi binar qurilmali gaplar ham o'ziga xos muayyan bir lisoniy qurilish qolipi bo'lishi kerak. Binar qurilmali gaplarning o'ziga xos alohida tizim sifatida ajratib turuvchi belgisi ham aynan shunda, ya'ni gapda ko'rinmaydigan kesimlik kategoriyasining leksik birliklarning lug'aviy ma'nosida mujassam bo'lganligidadir. Shu sababli ular sodda gap tarkibida boshqa so'z yoki gap bo'lagiga tobelanib kela olmaydi. Masalan quyidagi holatlarda:

-Bugun ertaroq kelasizmi? -*Albamma.*


-*Qani to'rga.*

-Qayoqqa qarab yo'l oldingiz? -*Oshga.*

-*Labbay, boy ota.*

Kesimlik ma'nosi so'z-gaplarning lug'aviy ma'nosida mujassamlanganligi sababli ularning minimal qolipini alohida ramz - [W^o] shaklida berish mumkin. [W^o] - da kesimlik ma'nolari binar konstruksiya bo'lishi mumkin bo'lgan leksik birlikning lug'aviy ma'nosiga ishora bor. Sodda gapning binar qurilishida esa sintaktik aloqaning vositachi unsurlari uchramaydi, lekin qismlar ma'lum va muayyan pauza (ohang) orqali o'zaro

bog'langanliklari seziladi. Kesimlik belgisi ko'rinmaydi, ya'ni (WPm) qolipli gaplardan farqli o'laroq (WP) ramzida beriladi:



Bunday leksik birliklarning ichki ma'noviy turlarida tasdiq/inkor [N], modallik [M], zamon [T], shaxs-son [P] ma'nolarining yetakchiligi va bo'rttirilganligi quyidagicha: a) modallarda [MNPT]; b) tasdiq/inkorlarda – [NPTM];

c) taklif/xitoblarda – [PTMN]; d) undovlarda – [TMNP].

Modal, undov, tasdiq, taklif-xitob kabi leksik-semantik turlarga bo'linadigan SFSHSG larning zotiy xususiyatida kesimlik kategoriyasi va uning tarkibiy qismlari $[W^0]=[Pm^2=(N+M+T+P)]$ ma'nolari so'z-gaplarning semantic strukturasida namoyon bo'ladi. Shu belgisi bilan SFSHSG kesimlik ma'nosi maxsus belgilar [Pm] bilan kiritiladigan boshqa turdagi barcha so'zlardan tubdan farqlanadi. Kesimlik ketegoriyasi ma'nosi, birinchidan, bu so'zlarning semantic strukturasida shakllanganligi sababli SFSHSG, avvalo, kesimlik ko'rsatkichlari bilan birikib kelolmaydi, biroq mustaqil holda gap bo'lib kelaveradi. Ikkinchidan, boshqa gap tarkibiga kirsam ham, uning tarkibiy qismlari (ega, kesim, aniqllovchi, to'ldiruvchi, hol) bilan tobe-hokim aloqalariga kira olmaydi, ammo ergash yoki mustaqil teng munosabatli qo'shma gaplar komponentlari bilan tobe yoki hokim tobe yoki hokim munosabatda bo'ladi.

Ta'kidlash joizki, til va nutq, ularning mazmuni va shakli o'rtasidagi munosabatlar juda murakkab va xilma-xildir. Bizga ma'lumki, sintaktik qurshovda SFSHSG larning ma'no imkoniyatlari chegaralanganligi, o'zida

grammatik shakl (qo'shimchalar) *talab etmasligi*, boshqa so'zlar (va gap bo'laklari) bilan semantik jihatdan aloqaga kirishish qobiliyatidan mahrumligi, gap bo'lagi sanalmasligi va gapdagi bo'laklar bilan *bog'lanmasligi singari belgilari mavjud*. Fransuz tilida esa bu belgilar to'liq asos qilib olinmagan. Biroq SFSHSG larga o'xshash bir xil tipdagi alohida gaplar:

- 1) *binar konstruksiya-construction binaire*: Paresseux, ce garçon.
- 2) *prezantativ - phrases présentatif*: *Voici, voilà* la villa!
- 3) *nominativ - phrases nominales*: *Le héros*.
- 4) *muallif gapi - propositions incises*: - Allons au theatre, *dit Philippe*.
- 5) *kiritma - propositions incidents*: ca sera tres bien, *je crois*.
- 6) *so'z-gaplar- mots-propositions*: *Ça va?*

birgalikda kanonik model, ekanligi ya'ni alohida o'ziga xos qurilishga ega bo'lishi R.Bobokalonovning tadqiqotlarida e'tirof etilmoqda.

SFSHSG lar va binar konstruksiyali gaplarning farq qiladigan jihatlari bo'lsada ularning umumiy mohiyati bir. Har ikkala nutqiy hosilalarda kesimlik belgilari uchramaydi. Shular sabab, o'zbek tilimizdagi SFSHSG lar fransuz tilidagi atipik gaplarga to'g'ri keladi, deb ayta olamiz va dissertatsiya ishimizda ma'lum bir tizimga solishga harakat qilamiz.

Mavzuning dolzarbligi : Tilshunos olimlarning system tilshunoslikda gap qurilishining til sistemasida tutgan o'rniga bag'ishlangan tadqiqotlari talaygina.

Lekin hozirgi davrda fransuz va o'zbek tillaridagi sodda gap tarkibida binar qurilmali gaplarning to'laligicha tizimga solinmaganligidir.

Fransuz va o'zbek tilidagi sodda gaplarda binar qurilmali munosabatlarni tadqiq etish jarayonida asosiy mazmun mohiyatni yoritish, hamda ularga xos bo'lgan xususiyatlarni ochib berish tadqiqotimizning dolzarb jihatlari hisoblanadi.

Mavzuning o'rganilganlik darajasi. Nazariy manbaalar A.G`ulomov, G`. Abdurahmonov, A.R.Sayfullayev, M.Asqarova, N.Maxmudov,

A.Nurmonov, H. Ne'matov, va M.Abuzalova, amaliy manbaalar esa R.R.Bobokalonov, R.MARTIN, R.Riol, F.Leufeuve kabi fransuz va o'zbek tilshunos olimlarining tadqiqotlari mavzuni yoritishda ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan asos bo'ldi. SFSHSG lar qatorida binar qurilmali gaplar ifodalanishini ko'rsatishda ularni semantik, kommunikativ xususiyatlariga ham alohida e'tibor qaratildi. Binar qurilmali gaplar fransuz va o'zbek tillarida amaliy, sintaktik-qiyosiy tahlil etildi. Misollar og'zaki nutq, o'zbek va fransuz adiblari asarlaridan olingan.

Tadqiqotdan ko'zlangan maqsad va vazifalar; Sintaktik munosabatlar orasidan asosiy e'tiborni predikativlik belgisining yo'qligi, ammo semantik jihatdan mavjudlilik natijasida hosil bo'lgan binar qurilmali gaplar va ajratilgan bo'lakdagi leksik birliklarning xususiyatlarini ochib berish va ularni tahlil qilishdan iborat.

Tadqiqot vazifalari : Tadqiqot oldiga quyidagi vazifalar qo'yildi:

1.Kanonik modeli gaplarning atipik turiga xos bo'lgan binar konstruksiyali gaplar haqida tushuncha berish va ularning o'g'zaki nutqda ifodalanishini tahlil qilish.

2.O'zbek tilidagi SFSHSG haqida tushuncha berish va ularni izohlashda binar konstruksiyaning o'rnini misollar orqali ochib berish.

3.Fransuz va o'zbek tillarida binar qurilmali gaplarning ifodalanish muammolarini o'rganish.

Tadqiqotning ob'yekti va predmeti : Sodda gap qurilishi haqida umumiy ma'lumot va fransuz tilidagi binar qurilmali gaplarning xarakterli xususiyatlarini tahlil qilish. Og'zaki nutq va zamonaviy o'zbek va fransuz adiblarining asarlaridan olingan misollar tahlil ob'yekti sifatida olinib, ularning tarjimai sintaktik-qiyosiy tahlil etildi.

Tadqiqot uslubiyati va uslublari : Tadqiqot ishini yozishda tilshunoslikning system-struktur nazariyasi sohasining sintaktik-qiyosiy tahlil usullaridan foydalanildi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy yangiligi : Fransuz tilidagi gaplarda binar qurilmali gaplar va ajratilgan bo'laklarni tadqiq qilish, o'zbek tiliga ifodalanishini qiyosiy o'rganish ishni ilmiy jihatdan asoslab beradi.

Tadqiqot natijalarining nazariy va amaliy ahamiyati : Ushbu tadqiqotning nazariy xulosalari va manbalari tilshunoslikning sistem-struktur nazariyasi sohasida sodda gap qurilishi xususida ma'lumot olishga imkon beradi. Mavzuga doir to'plangan materiallar oliy o'quv yurtlarining filologiya fakultetlarida, grammatikaning « sintaksis » bo'limi uchun manbaa sifatida foydalanishi mumkin.

Tadqiqot ishining tuzilishi : Mazkur magistrlik dissertatsiyasi, ishning umumiy tavsifi, kirish, 3 bob, umumiy xulosa, fransuz tilida ishning qisqacha bayoni (rezyume) va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatidan iborat.

I BOB SISTEM TILSHUNOSLIKDA SODDA GAP QURILISHI.

1.1.O'zbek sistem tilshunosligida sodda gap qurilishi talqini

“Borliqdagi har bir narsa, voqea-hodisa o'z ijtimoiy taraqqiyotiga ega. Barcha fanlar qatorida bu taraqqiyot tilshunoslikni ham chetlab o'tmagan. O'zbek tilshunosligi rivojlanishida bir nechta bosqichlardan, sinovlardan o'tdi. Ayniqsa, bu holat Mustaqillikka erishganimizdan keyin yaqqol ko'zga tashlanadi.”¹

Ma'lumki, har bir til tizimining sintaktik qatlamini o'rganishda gaplar struktura jihatdan kommunikativ yo'nalishiga hamda tarkibiga ko'ra tasniflanadi. Ammo gapdagi so'zlar o'zaro bog'langan bo'lib, ularning har biri gap tarkibida biror grammatik vazifani bajaradi. Gap strukturasini tahlil qilishda undagi gap bo'laklari sintaktik kategoriya hisoblanadi. Mazkur kategoriyalar gap tarkibidagi elementlarning o'zaro munosabatini, bu munosabatning harakterini, gapning grammatik jihatdan qanday bo'laklarga ajralishini, so'zning gapdagi rolini ko'rsatadi. Har bir gap ma'lum ob'yektiv mazmun va substant material, ya'ni so'zlar yordamida ifodalanadi. Gapning substantSIONAL tomoni uning sintaktik strukturasini hisoblanadi. Sintaktik strukturani tashkil etgan elementlar tilshunoslikda turlicha, ya'ni "gap bo'laklari", "sintaksema",² "sintaktik shakl"³ kabi nomlanib kelinmoqda. Sintaktik elementlarni, shuningdek, aktant nomi bilan ham atashadi. Avvalo shuni aytish lozimki, «aktant» termini tilshunoslikka taniqli fransuz olimi Lyus'en Ten'yer tomonidan kiritilgan edi. U aktant deganda, fe'l bajarayotgan ish-harakati ijrosida faol qatnashayotgan leksik birliklarni tushunadi. Aktantlar, boshqacha aytganda, harakat ijrochisi va uning iste'molchilaridir. Ularning ishtirokisiz fe'lning sintaktik vazifalari xususida hamda uning jumla tarkibida voqeyelanayotgan faolligi xususida mukammal ma'lumotga ega bo'lish qiyin.

¹ Бобокалонов Р.Р. “Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган гаплар талкин.”Фан” нашр. 2006

² Мухин А.М. Функциональный анализ синтаксических элементов (на материале древнеанглийского языка). - М.: Наука, 1964. - С.23.

³ Золотова Г.А. К вопросу о способах выражения членов предложения // Русский язык в школе. - М., 1958.-№ 1. - С.23-28.

Aktant gap sathida ot turkumidagi so'z yoki mazkur so'zning o'rnida qo'llanilishi mumkin bo'lgan olmosh, otlashgan biror so'z orqali ifodalanadi.

L.Ten'yer aktantlarni harakat ijrosidagi darajasiga qarab uch turga bo'lib talqin etadi va ularni 1-darajali, 2- darajali, 3- darajali aktantlar deb nomlaydi⁴. L.Ten'yerning aktantlar nazariyasi mantiq iskanjasida bo'lgan tilshunoslikni sezilarli darajada undan tozalash uchun xizmat qilishi shubhasizdir. Zotan, mazkur nazariyada an'anaviy sintaktik tahlilda qo'llaniladigan ega, kesim, aniqllovchi va h.k. tushunchalaridan foydalanilmaydi.

Ma'lumki, an'anaviy tilshunoslikda gapning sintaktik talqini xususida so'z yuritilganda gapni bo'laklarga ajratib tahlil qilish tushuniladi. Gap bo'laklarining bunday tavsifi tilshunoslikda XX asrning o'rtalariga qadar sintaktik tahlil jarayonida yetakchi rol o'ynadi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, til birliklariga, shu jumladan, sintaksemalarga muayyan ichki strukturaga ega bo'lgan murakkab sistema sifatida yondashuv, tilning boshqa sathlarida bo'lgani kabi sintaktik sathda ham turli yangicha tahlil mezonlarini ishlab chiqish uchun asos bo'ldi⁵.

Xususan, A. Nurmonovning fikricha, sistem tilshunoslikda gapning struktur elementlari gap bo'laklari yoki sintaktik pozitsiya, propozitiv struktura elementlari esa ob'yektiv reallik strukturasiga nisbatan izomorflik, kommunikativ (aktual) struktura tema (ma'lum) va rematik (yangi), modal struktura ob'yektiv va sub'yektiv munosabatlar nuqtai nazaridan o'rganiladi⁶. Darhaqiqat, har bir strukturaning o'ziga xos elementlari mavjud bo'lib, ular faqat shu struktura darajasidagina o'zaro assotsiativ va sintagmatik aloqada bo'ladi. Shu jihatdan qaralganda, an'anaviy tilshunoslikdagi ayrim muammolarning sababi oydinlashadi. Xususan, an'anaviy tilshunoslikda

⁴ Теньер Л. Основы структурного синтаксиса. – М.: Прогресс, 1988. – С. 117.

⁵ Махмудов Н., Нурмонов А. Ўзбек тилининг назарий грамматикаси. (Синтаксис). — Тошкент: Ўқитувчи, 1995. — Б. 61-63.; Храковский В.С. Концепции членов предложения в русском языкознании XIX века // Грамматические концепции в языкознании XIX века. - Л., 1985. – С.124.

⁶ Нурмонов А., Махмудов Н. ва бошқалар. Ўзбек тилининг мазмуний синтаксиси.- Тошкент: Фан, 1992. - Б.85-89.; . Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари // Ўзбек тили ва адабиёти. - Тошкент, 1988. - №5. — Б. 22-23.

gapning sintaktik tahlili uni bosh va ikkinchi darajali bo'laklarga ajratish bilan chegaralanadi. Bunday tahlil gapning shakliy tomonini tekshirish hisoblanadi. Mantiq tilshunoslari esa gap elementlarini ega o'rnida «sub'yekt», kesim o'rnida «predikat» kabi lisoniy atamalar yordamida tahlil qiladi. Lekin bu borada ega bilan sub'yekt, kesim bilan predikat o'rtasidagi o'xshashlik tomonlar hamda ularning bir-biridan farq qilish muammosi anchagina bahslarga yo'l ochib berishi e'tibordan chetda qoladi. Masalan, rus mantiqiy tilshunosi F.I. Buslayev, «...tilda egaga bosh kelishikda kelgan ot mos keladi... ba'zan ega va kesim boshqa so'z turkumlari bilan ifodalanadi, lekin har holda egani anglatgan so'z ot ma'nosini, kesimni anglatgan so'z esa fe'l ma'nosini oladi»⁷, degan fikrni bildiradi. Shunday ekan, gapda ega har doim bosh kelishikda kelib, faqat sub'yektni ifodalasa, kesim fe'l bilan ifodalanib, predikat bo'lib kelsa va ularda bir xillik mavjud bo'lsa, bosh bo'laklarni har xil atamalar bilan atashga nima majbur qiladi, degan savol tug'iladi. Mantiqda implikatsiya munosabatlari ekstensional, intensionallar va ularning orasidagi bog'liqlik orqali, grammatikada esa grammatik kategoriyalar, gapdagi fe'lli va otli qurilmalarning bog'liqligi bilan aniqlanadi⁸.

Gapning sintaktik qatlami tahlil qilinganda gapda ega yoki kesimning muhim ahamiyatga ega ekanligi ham ayrim bahslarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi. A. G'ulomov va M. Asqarovalar bu haqda shunday deydi: «Bosh bo'laklar gapning asosini tashkil etadi: ular gap konstruksiyasining asosidir, markazidir-gapdagi ikki uyushtiruvchi markazdir. Lekin bosh bo'laklarning yolg'iz o'zi ham mustaqil gapni tashkil qiladi, biroq ba'zi o'rinlarda ularning o'zidan to'liq fikr ifodalanmaydi. ... Ega hokim tarkibning grammatik markazi, shuningdek, uni tobe tarkibdagi bosh bo'lakka - kesimga ham hokimdir»⁹, deb ta'kidlashadi. Kesim haqidagi bunday talqin 1980 yillargacha, ya'ni fanimizga sistem-struktur sintaktik tadqiqotlar kirib kelgunga qadar davom etib keldi.

⁷ Буслаев Ф.И. Историческая грамматика русского языка. - М.: Наука, 1968. -С. 8.

⁸ Tomic O.M. Generative syntax in theory and practice. — Skopje: "Kiril i Mefodij" University, 1998. - P.119-120.

⁹ Гуломов А., Асқарова М. Ҳозирги ўзбек адабий тили. Синтаксис. -Тошкент: Ўқитувчи, 1987. - Б.72-77. Жигадло В.Н., Иванова И.П., Иофик Л.Л. Современный английский язык (теоретический курс грамматики). - М.: Лит на иностр языке, 1956. - С.244.

Ammo H. Ne'matov, N. Mahmudov, A. Nurmonov, R. Sayfullayeva, M. Abuzalova kabi o'zbek hamda boshqa xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida kesimning mavqeyi yangicha baholandi - kesim gap qurilishidagi mutloq hokim bo'lak, gap markazi sifatida talqin etildi.¹⁰

Umuman olganda, kesim bosh bo'laklarning biri sifatida barcha tillarda universal harakterga ega bo'lishiga qaramasdan, u ifodalanishiga ko'ra tasniflanganda tilshunoslarning kesim haqidagi fikri turli-tumanligining guvohi bo'lamiz.

Tilshunoslik fani taraqqiyotining hozirgi davri bosqichida til tizimi birliklarining qay tarzda nutqqa ko'chirilishi va jumlaning nutqiy zanjirda voqelanishi, sintaktik strukturalarning nutqiy faollashuvi, ularning semantik va sintaktik munosabatlari masalasiga doir muammolar tilshunos olimlarimizdan o'z tadqiqini kutmoqda. Chunki hozirgacha tilning sistema ekanligi to'g'risida diqqatga sazovor tadqiqot ishlari qilingan bo'lsa ham, sistema belgilarining nutqqa ko'chirilishi, boshqacha aytganda, ularning nutqda real ishlatilishi masalasiga kam e'tibor berildi.

Mazkur masalalar ayniqsa nutq lingvistikasi ilmiy asoslanayotgan bugungi kunda yanada dolzarb bo'lib qolmoqda. Zotan, til tizimidagi har bir belgining paradigmatic qator doirasidan syntagmatic qator doirasiga o'tishi, virtuallik belgilarini tark etib, aktual holat kasb etishi va shu yo'sinda gapning sintaktik shakllanishi nutq lingvistikasining g'oyat muhim masalalarini taqozo etadi.

Ravshanki, gapning asosiy bevosita ishtirokchi elementlari so'zlar hisoblanadi. Biroq gap sathida so'zlarning o'zaro bog'lanishi ularning shunchaki ketma-ket kelishidan iborat bo'lmay, bunda tilning semantik, sintaktik va hatto fonologik qurshov (distributsiya) qoidalari ustuvor ahamiyatga ega bo'ladi. Bu jarayonda gap shaklini tashkil etayotgan har bir bevosita ishtirokchi element uning ajralmas bir bo'lagi vazifasini olib, ma'lum bir funksional qiymat kasb

¹⁰ Ne'matov H., Mahmudov N., Sayfullayeva R., G'ulomov A., Abduraimova M. Ona till. 8-sinf uchun darslik. - Toshkent, 2002. - B.37.

etadi. Chunki gap tarkibida faollashayotgan har bir element orqali ma'lum bir kommunikativ, semantik yoxud pragmatik maqsad ko'zda tutiladi. Mazkur maqsad ifodasi esa turlicha ro'y beradi. Masalan, gapda tilning ba'zi birliklari katta yoki kichik bo'lishidan qat'i nazar, mustaqil holatda faollashib, ega yoki kesim vazifasini bajarsa, ba'zilariga boshqalarning yordamida aniqlovchi, to'ldiruvchi, hol vazifalari yuklanadi, ayrimlari esa muxtor tarzda harakatga keladi.

Tilimizda shunday elementlar ham mavjudki, ular biror sintaktik vazifani bajarmay so'zlovchining o'zi bayon etayotgan fikrga, yoxud o'sha fikrning ifoda etilishi usuliga bo'lgan munosabatni bildiradi. Bunday munosabat tasdiq, umid, ishonch, gumon, taxmin, shodlik, taajjub va hokazo ma'nolarni anglatib, bayon qilinayotgan fikr tartibini, mazkur fikrning oldingi mulohaza bilan bog'liqligini ifodalaydi. Bular modal so'zlar bo'lib, gapning biror bo'lagiga yoki butun gapga taalluqli holda kirish so'z mavqeyida kelishi bilan sintaktik va nihoyat, fikrga aniqlik kiritishi, tasdiq, taxmin, tartib turlicha emotsional munosabatlarni ifodalashi bilan semantik belgilarga ega bo'la oladi.¹¹ Kirish so'z va kirish birikmalar gapning umumiy strukturasini kengaytirib, uning mazmuniga qo'shimcha ma'no berishiga qaramay, an'anaviy grammatikalarda gap bo'laklari qatoriga kiritilmaydi. Bu esa gapni tashkil etuvchi bevosita ishtirokchilarning birini bosh bo'lak, ikkinchisini ikkinchi darajali bo'lak deb, boshqasini nomsiz qoldirib, hech qanday bo'lak qatoriga qo'shmaslik masala mohiyatini nihoyatda chigallashtirib yubormoqda. Bunday vaziyatga ko'pchilik olimlarimiz ko'nikib ketishgan bo'lsalar-da, so'nggi yillarda ba'zi tilshunoslar bu haqda o'zlarining e'tirozli fikrlarini bildirmoqdalar. Masalan, A.R.Sayfullayev o'zining ilmiy izlanishlarida modal so'z va modal birikmalar gapning uchinchi darajali bo'laklari ekanligini va ular semantik vazifalaridan tashqari sintaktik vazifa bajarishi mumkinligini ilmiy jihatdan asoslab berdi.¹² A. R. Sayfullayevning fikricha, kirish so'z va kirish birikmalar ko'pincha gapning kesimi vazifasida

¹¹ Ўзбек тили грамматикаси. – Тошкент : Фан, 1976. — 560 б.

¹² Сайфуллаев А.Р. Семантико-грамматические особенности членов предложения в современном узбекском языке. – Ташкент, 1984.

kelgan soʻz bilan sintaktik munosabatda boʻlib, ular bilan boshqaruv, bitishuv usullari orqali bogʻlanadi.¹³ Lekin shunga qaramay, bu oʻrinda ham muammo yechimi toʻliq hal qilinganligini eʼtirof etishimiz qiyin koʻrinadi. Chunki gap boʻlamlari nazariyasi gap muchalarining formal-sintaktik funksiyalarini atroflicha yoritmayapti. Bizningcha, buning asosiy sababi gap boʻlamlari tushunchasining mantiqiy xarakteri bilan bogʻliqdir. Boshqacha aytganda, gap boʻlamlari tushunchasi sof lingvistik maqsadlarni koʻzda tutmagani bois, u orqali gap komponentlarining tildan nutqqa koʻchirilishi va bu jarayonda qanday sintaktik vazifalar bajarishi masalasi talqinini berib boʻlmayapti. Albatta, vaziyatning bunday tus olishi tilshunos olimlarimizni tashvishlantirmoqda va shu bois gap komponentlari sintaktik tahlilining yangi-yangi usullari taklif ham etilmoqda. Ana shunday tahlil usullaridan biri Praga tilshunoslik maktabining yirik namoyandalaridan biri A.Martining funksional tahlil nazariyasidir. Mazkur nazariyada nutqning eng kichik birligi «monema» tushunchasi ilmiy isteʼmolga kiritildi. Bu struktur-funksional tahlil uchun eng qulay atama boʻlib, uning yordamida gap elementlarining funksional tomonlarini va sintaktik qurilmaning shakllanishida har bir elementning paradigmatic qator doirasidan sintagmatic qator doirasiga oʻtishi masalalarini mukammal talqin etish mumkin. A.Martine monemalarni uchga boʻladi: avtonom, funksional va qaram monemalar.¹⁴ Avtonom monema gap tarkibida muxtor holda qoʻllanilib, tildan nutqqa biror bir morfologik vositaning yordamisiz koʻcha oladi. Nutqda uning faolligi boshqa monemalar bilan bogʻlanmaydi. Boshqacha aytganda, muxtor monema oʻzining sintaktik, semantik va funksional faolligi jihatidan boshqa biror monemaga tobe boʻlmaydi.

Boshqa gap elementlariga qaraganda muxtor monemaning sintaktik oʻrni erkin boʻlganligi sababli aksariyat hollarda uning oʻrnini oʻzgartirish yoki gap tarkibidan tushirib qoldirish ham mumkin. Garchi u tushirilib qoldirilsa ham, gapning asosiy mazmuniga putur yetmaydi. Faqat uning yuzaki strukturasi

¹³ Сайфуллаев А.Р. Семантика и грамматика членов предложения в современном узбекском языке // Автореф. докт. дисс. – Ташкент, 2001.

¹⁴ Martinet A. La linguistique synchronique. –Paris, 1968.

qisqarishi va gapda ifodalanayotgan ta'kidlash, gumon, aniqlik, inkor, shodlik, shubha va hokazo ma'nolariga ziyon yetishi mumkin. Ammo ayrim kirish so'z va kirish iboralarning o'rni ularning distributiv xarakteriga ko'ra muqim bo'ladi. Bu, albatta, har bir tilning o'z ichki qonuniyatlari bilan bog'liqdir.

Muxtor monemalar o'zbek tilida ko'p hollarda kirish so'z, kirish birikmalar, payt ravishlari orqali ifodalanadi va bu bilan boshqa monemalardan farqlanib turadi.¹⁵ Funksional monema gapning biror elementini tildan nutqqa ko'chirishi va unga sintaktik funktsiya berishi bilan xarakterlanadi¹⁶. Funksional monemalar boshqa monemalarga faollik baxsh etib, ularni paradigmatic qator doirasidan sintagmatic qator doirasiga qarab yetaklaydi, virtual holatdan aktual holatga olib keladi, jonlantiradi. Natijada, funksional monemalar orqali faollashib, nutqiy vazifa olayotgan monemalar ularga tobe bo'lib qoladi va qaram monemalar deb yuritiladi. Nutq muhiti va so'zlovchining istak-xohishi bilan til birliklari nutqqa ko'chayotganda belgisi yoxud belgisiz ifodalanishi mumkin. Sodda gap komponentlarining funksional tahlili affikslar, ko'makchi va ba'zi so'z shakllari bilan bog'liq bo'lsa, qo'shma gap komponentlarining funksional tahlili ularni o'zaro bog'lovchi vosita bilan uzviy aloqadordir. Keling, sodda gap to'g'risida gap ketar ekan, uning tarkibiy qismlariga ham to'xtalib o'tsak.

1.2. Sodda gapning tarkibiy qismlari.

Gap kesimini shakllantiruvchi vosita kesimlik kategoriyasi bo'lganligi sababli o'zbek nutqidagi gaplarning tarkibiy qismlarini shu gap tarkibiga kiruvchi so'zlarning va kesimlik kategoriyasi shakllarining valentligi belgilaydi. Demak, nutqiy gaplardagi ikki hodisani farqlash lozim:

1) gap markazini tashkil etuvchi so'zdagi kesimlik kategoriyasi shakllariga bog'lanuvchi so'zlarni :


2) gapda ishtirok etayotgan ma'lum bir so'zning ma'noviy valentligini to'ldirayotgan so'zlarni.

¹⁵ К.Турниёзова. Гапнинг учинчи даражали бўлаклари ва «монема» тушунчаси ҳақида баъзи мулоҳазалар //Хорижий филология. № 2, 2007. Б.81-85.

¹⁶ Мартине А. Основы общей лингвистики //Новое в лингвистике, вып. 3, - М., 1963.

Bulardan *birinchisi gap kengaytiruvchisi* bo'lsa, *ikkinchisi so'z kengaytiruvchilaridir*.

Gap kengaytiruvchilari. Gap kengaytiruvchilari gap tarkibida ma'lum bir bo'lak vazifasida kelayotgan so'zlarning lug'aviy ma'nosi bilan emas, balki gapning kesimini shakllantirgan morfologik vositalarga bog'lanadi. Masalan: *Biz bu kitobni kecha o'qidik* gapini olaylik. Bu gapda ega (biz), aniqlovchi (bu), hol (kecha) va kesim (o'qidik) ishtirok etgan. Gap markazi (o'qidik) ni lug'aviy ma'noni anglatuvchi (W) va kesimlik qo'shimchalariga (Pm) ajratamiz: o'qi (W) - dik (Pm) Gapdagi biz (ega) kesimlik kategoriyasi shaklining -k qismiga, kecha (hol) esa -di qismiga bog'langan. kitobni so'zi (to'ldiruvchi) kesimning lug'aviy ma'no anglatuvchi qismiga, bu (aniqlovchi) esa kitobni so'ziga bog'lanmoqda. Buni chizmada quyidagicha tasavvur qilish mumkin.




Demak, gapning kesimi tarkibidagi kesimlik qo'shimchalariga tobelangan kecha (hol) va biz (ega) so'zlari gap kengaytiruvchilaridir.

Berilgan gapdagi kesimlik qo'shimchalarini almashtirsak, uning birikuvchilari ham o'zgaradi. Biroq o'qidik kesimining lug'aviy ma'no anglatuvchi qismi bo'lgan o'qi so'zining istalgan boshqa fe'l (yoz, chiz, ol, ber) bilan almashtirilib, -dik qismi saqlab qolinsa, biz ega, kecha hol vazifasida qolaveradi.

Gap kengaytiruvchisi sifatida ega gapning kesimlik qo'shimchalari tarkibidagi shaxs-son, hol esa zamon, modellik, tasdiq-inkor shakllari bilan bog'lanadi.

Gap kengaytiruvchilari faqat kesimga tobelanadi va uning boshqa bir so'zga tobelanishi kuzatilmaydi:




Bu bilan u sintaktik qurilmadagi barcha tobe birliklarning umumiy - faqat bir so'zga tobelanish, lekin birdan ortiq so'zga hokim mavqaida bo'la olish qonuniyatini xususiyatini namoyon qiladi.

Modalga kengaytiruvchilar. Ma'lum bo'ldiki, (Pm) tarkibida tasdiq-inkor va modallik ma'nolari ham mavjud. Shuning uchun (Pm) da mujassamlashgan va turli vositalar bilan ifodalangan tasdiq-inkor, taxmin, gumon, shubha, ishonch, qat'iylik, shart, istak, tilak, buyruq, imkoniyat, zarurat, majburiylik va h. ma'nolar gap tarkibida turlicha - kirish bo'lak, kiritma bo'lak kabi gapning boshqa bo'laklari bilan tobe - hokimlik munosabatiga kirishmaydigan va shu boisdan so'z birikmalarini ham tashkil eta olmaydigan modal so'zlar va tasdiq-inkor so'zlar vositasida kengaytiriladi. Masalan: 1. Nigora, ehtimol keladi. 2. Biz, shubhasiz, yutib chiqamiz. Gaplardagi ehtimol, shubhasiz so'z - gaplari sodda gap tarkibiga kirak ekan, gap bo'laklari bilan grammatik aloqaga kirishmasa-da, mazmunan (Pm) ning tegishli ma'nolarini muayyanlashtiradi. Modal kengaytiruvchilar bu bilan lisoniy gap mazmunini nutqda to'laroq ochishga yordam beradi.

So'z kengaytiruvchilari. Gap tarkibidagi mustaqil so'zlik mavqeini saklagan barcha so'zlarning ma'noviy qobiliyati asosida kengaya olishini va shu qobiliyatni namoyon qilishini ta'minlovchi so'zlar so'z kengaytiruvchisi deyiladi. So'z kengaytiruvchilari gapning qurilishiga bevosita aloqador hodisa bo'lmay, ma'lum bir so'zning ma'nosini muayyanlashtirish, uni ochib berishga aloqador bo'lgan hodisadir. So'z kengaytiruvchisi mustaqil, alohida bir gap bo'lagi - gap qurilishining zaruriy tarkibiy qismi emas. U gapning ma'lum bir

bo'lagiga ergashib, tobelanib keladi, gap markazi - kesim tarkibidagi kesimlik qo'shimchalari bilan bog'lanmaydi. Aniqlovchi ana shunday bo'lakning tipik ko'rinishi. Masalan: Bu kitobni kecha o'qidik gapidagi *bu* aniqlovchisi to'ldiruvchi (kitobni) ga tobelangan va gap tarkibida to'ldiruvchi bilan bir butun holda kesimga bog'lanadi.

Aniqlovchi gapdagi barcha bo'laklarni kengaytirishi mumkin:



Biz kecha bu kitobni o'qidik gapidagi kitobni so'zshakli bilan ifodalangan vositasiz to'ldiruvchini olib ko'raylik. Ma'lumki, vositasiz to'ldiruvchi bilan birikishi faqat o'timli fe'llarga xosdir. Shu boisdan vositasiz to'ldiruvchi kesimlik shakli bilan emas, balki kesim vazifasida ma'no jihatidan o'timli bo'lgan fe'lning kelishi bilan bog'liqdir. So'z va gap kengaytiruvchilarini farqlashga yuqorida tasvirlangan mezon asosida yondashadigan bo'lsak, bu gapdagi to'ldiruvchini ham so'z kengaytiruvchisi - o'timli fe'lning lug'aviy ma'nosi bilan bog'liq bo'lgan muayyanlashtiruvchi bo'lak sifatida baholash lozim.

Demak, to'ldiruvchi ham aniqlovchi kabi so'z kengaytiruvchisi bo'lib, gapning qurilishida mustaqil o'rin egallaydi, balki gap tarkibiga o'zi bog'lanayotgan o'timli fe'l bilan kiradi. O'timli fe'l gapda qanday mavqeda kelmasin, vositasiz to'ldiruvchi u bilan bir butunlikni tashkil etib, shu butunlikka

nisbatan bo'lak maqomida bo'ladi. Boshqacha aytganda, mazkur gapda to'ldiruvchi gapning bo'lagi emas, balki kesimning bo'lagi - bo'lak ichidagi bo'lagidir. To'ldiruvchi gapda ko'pincha kesimga bog'lanadi. Lekin to'ldiruvchi faqat kesimga tobelanib keladi, degani emas. U barcha bo'laklarni to'ldirishi mumkin.

Egani to'ldirish: Kitobni o'qigani yaxshi bo'ldi (t+e+k).

Kesimni to'ldirish: Tolib kitobni o'qidi (e+t+k).

Holni to'ldirish: Kitobni o'qiganligi uchun savollarni tez payqadi (t+h+t+h+k).

Aniqlovchini to'ldirish: Kitobni yirtgan kishining kimligi ma'lum (t+a+a+a+k).

To'ldiruvchini to'ldirish: Kitobdan o'qiganini so'zlab berdi (t+t+k).

Ko'rinadiki, 1- gapda to'ldiruvchi ega (o'qigani)ga, 2-gapda kesim (o'qidi)ga, 3- gapda hol (o'qiganligi uchun) ga, 4- gapda aniqlovchi (yirtgan) ga, 5- gapda to'ldiruvchi (o'qiganini) ga tobelanib kelayapti.

Demak, to'ldiruvchi fe'l ifodalangan barcha gap bo'laklariga bog'lanadi va gap tarkibiga o'zi bog'langan bo'lak bilan yaxlitligiga kiradi. Bu kengaytiruvchilar o'zi birikayotgan so'z bilan so'z birikmasi hosil qiladi, biroq gap qurilishi bilan bevosita aloqador emas.

1.3. Grammatik shakllangan gaplarning eng kichik lisoniy sintaktik qoliplari.

O'zbek tilining sintaktik qurilishi o'rganila boshlangandan so'ng tilshunoslar gapning faqat tashqi tomoniga emas, balki ichki tomoniga ham e'tibor qarata boshladilar. Formal sintaksis bevosita kuzatishda berilgan , og'zaki hamda yozma shakllarda voqelangan hodisalarni o'rganishga diqqatini qaratdi va uning tahlil asosini aynan bevosita kuzatishda berilgan nutqiy sintaktik hodisalar tashkil etdi. Formal tilshunoslikda lison va nutq hodisalarini farqlamaslik, imkoniyat va voqelik, umumiylik va xususiylik kabi

tushunchalarni chalkashtirish sintaktik hodisalarning substansial mohiyatini ochishga to'sqinlik qildi. Shu asosda "an'anaviy sintaksisda gapning bir va ikki tarkibliligi, asosan, sodda gap materiali asosida o'rganiladi" hamda sodda gaplar yig'iq va yoyiq turlarga bo'linadi. O'zbek tilshunosligi rus tilshunosligi zamirida rivojlanganligi, shuningdek, logik oqimning ta'siri tufayli sodda gaplar [S-P] qolipida tasvirlandi va talqin etildi. Gap haqida zamonaviy ta'limot yaratgan zabardast olim A.G'ulomov va uning izdoshlari o'zbek tilida gap qurilishiga rus tilining grammatik qurilishiga xos me'yor va qoidalar asosida yondashdilar. Buni olimning "Sintaksis asosida gap haqidagi ta'limot yotadi" degan qarashi ham yaqqol tasdiqlaydi. A.G'ulomovning mazkur qarashi o'zbek tilining substansial tabiatiga mos kelmas edi. Chunki "gapning asosi va yadrosi ega va kesim" degan fikrlariga zid o'laroq, "gap tushunchasi kesim bilan zich bog'langandir" degan qarash ham mavjud. Jahon tilshunosligidagi sistemaviy oqim zaminida o'zbek tilshunosligi ham shakllandi va taraqqiy etdi. O'zbek tilshunosligida tilga sistema sifatida yondashilib, lison va nutq hodisalari farqlandi hamda gapning til sathidagi eng kichik qolipi ishlab chiqildi. Tilshunos M.Qurbonova yozganidek, "Nutqimizda berilgan va an'anaviy sintaksisimizda atroflicha tahlil etilgan gap uning shakl va vazifa turlari til sathida ongimizda mavjud bo'lgan umumiylikning, gap eng kichik qolipining turli lug'aviy qurshov va nutq sharoitlarida minglab muayyan shakllarda yuzaga chiqishida namoyon bo'lishi aniqlandi".

Avvalgi fasllarda gapning eng kichik lisoniy qolipi (W_{Pm}) ramzi bilan berilib, u gapning umumiy lisoniy mohiyati sifatida tasvirlandi. Bunda o'zbek nutqida qo'llanadigan barcha gaplarning eng umumiy belgilari mujassamlashgan. Nutqdagi barcha gaplarning kesimdan boshqa bo'laklari olib tashlansa ham, u gap bo'la oladi. Biroq nutqiy gaplarning lisoniy sathda bu umumiylik (W_{Pm}) dan quyiroqda joylashgan boshqa umumiyliklari ham bor. Modomiki, gap kengaytiruvchilari gap mohiyatini belgilovchi asosiy vosita bo'lgan kesimlik qo'shimchalari (P_m) ga tegishli ekan, degan ixcham gaplardan boshqa barcha kengaygan gaplarda, kesim bilan birga, yana ikkita gap bo'lagini

ajratish mumkin. Ular ega va hollardir. To'ldiruvchi va aniqlovchi esa barcha bo'laklarga, bo'lakning bo'laklariga bog'langanligi hamda so'z kengaytiruvchilari bo'lganligi bois lisoniy qolipdan o'rin ola olmaydi. Ular qaysi so'zga bog'lanayotgan bo'lsa, lisoniy sathda ularning valentliklari sifatida yashaydi. Ixcham gaplar esa umumiy qolip - WPMning aynan voqelanishidir. Masalan: Bahor. O'tlar yam-yashil kabi.

Demak, ega va hol bilan gapning minimal qolipi (WPM) ini kengaytirsak, u quyidagi ko'rinishni oladi: E +H+? WPM

Bu gapning maksimal qolipi hisoblanadi. Boshqa barcha so'z kengshaytiruvchilari (to'ldiruvchi va aniqlovchilar) o'zi ergashib kelayotgan bo'laklar bilan bir butun holda bitta bo'lak (ega, kesim, hol) bo'lib keladi. Masalan, Shahobiddin hammaning boshini qizdirib, hissiyotni aqldan ustun qilgan bu soatda sohibqiron Amir Temurning Hindistonning podshohi bo'lgan zurriyoti o'zining qilich kesmaydigan, o'q o'tmaydigan nazarkarda botir ekaniga arslon kiyik bilan olishganda o'z g'alabasiga aniq bo'lganday ishonmoqda edi gapida uchta gap gap kengaytiruvchisi bor: soatda, zurriyoti, aniq bo'lganday. Bular to'g'ridan-to'g'ri gap markazi (kesimi) dagi kesimlik qo'shimchalari bilan bog'langan. Qolgan so'zlar esa ana shu (soatda, zurriyoti, aniq bo'lganday, ishonmoqda edi) bo'laklarning ma'noviy valentligini to'ldirayotgan so'z kengaytiruvchilaridir.

Gapda hollar ma'noviy turlariga ko'ra nechta bo'lsa ham, u bitta N belgisi bilan gap qolipidan o'rin oladi.

Uyushiq bo'laklar gap strukturasida bir xil mavqeni egallaganliklari sababli ularni lisoniy sintaktik qolipda berishga ehtiyoj yo'q. Shuningdek, ajratilgan bo'laklar ham qaysi bo'lakni izohlayotgan bo'lsa, o'sha bo'lak bilan bir butunlik kasb etadi.

Lisoniy sintaktik qolipning cheksiz rang-baranglikda voqelanish imkoniyati ustiga nutqda har bir so'zning ma'no valentligi zaminida xilma-xil so'z kengaytiruvchilari bilan kengayib kelish imkoniyati qo'shiladi va bu ko'rinishlarni cheksiz miqdorda ko'paytiradi. Lisoniy sintaktik qoliplarda har bir

tashkil etuvchi (kesim, ega, hol) ning bitta soʻz, soʻz birikmasi, soʻz birikmasi zanjiri, ajralmas birikmalar bilan ifodalana olish qonuniyati va bunday turli qurilishli birikmalarning sintaktik nuqtai nazardan teng huquqliligi mazkur imkoniyatlarni yanada kengaytiradi. Shuning uchun gapning oʻta sodda koʻrinish kasb etgan eng umumiy mohiyati - minimal qolipi - [WPm] ham, undan quyidagi umumiylik - maksimal qurilish qolipi - [Ye-N-? WPm] ham nutqimizda mana shunday rang-baranglik va cheksiz imkoniyatlarga ega boʻladi. Demak, kesim, ega, hol gapning lisoniy sathdan oʻrin olgan boʻlaklaridir.

Kesimlik kategoriyasi esa tasdiq/inkor, modallik, zamon va shaxs/son kabi nisbatan mustaqil boʻlgan lisoniy kategoriyalardan hosil boʻlgan va tasdiq/inkor, modallik, zamon va shaxs/son maʼno va shakllaridan iborat boʻlib, gap kesimini shakllantiruvchi mustaqil grammatik (shaklan morfologik, vazifa jihatdan sintaktik mohiyatli) kategoriyadir. Ammo shunday soʻzlar borki, birgina oʻzi ham gap hosil qiladi. Ular shu xususiyati bilan boshqa gaplardan farq qiladi. Bular binar qurilmali gaplardir.¹⁷ Tadqiqot ishimizning maqsadi ham aynan shunday gaplarning nutqda foydalanilishini oʻrganishdan iboratdir. Bu toʻrisida asosiy qismda batavsil toʻxtalib oʻtamiz.

Ravshanki, gap hukmni ifoda etuvchi lisoniy vositadir. Hukm esa gapning kesimisiz ifodalana olmaydi, yakunlanmaydi. Gapning hukmdan farqli oʻlaroq grammatik kategoriya sifatidagi talqini hamda gap va hukm orasidagi aloqadorlik masalasi oʻzbek sistem-struktur tilshunosligida H.Neʼmatov, A.Nurmonov, N.Mahmudov, R.Sayfullayeva, M.Qurbonova, M.Abuzalovalarning tadqiqotlarida yetarlicha yoritilgan. Anʼanaviy talqinga koʻra: “grammatik jihatdan kesim oʻz sostavidagi boʻlaklarga nisbatan hokim, egaga nisbatan esa tobedir. Ega birinchi bosh boʻlak, mutloq hokim boʻlak boʻlsa ham, gapni tashkil etishda, gaplikni koʻrsatishda kesim muhim rol oʻynaydi. Ega faqat temani ataydi, shu tema haqidagi bayon, fikr, mulohaza kesim orqali ifoda qilinadi”. Oʻzida predikativlikni aks ettiradigan, gapni uyushtiruvchi va shakllantiruvchi markaziy boʻlak kesimdir. U kesimlik

¹⁷ Бобокалонов Р.Р. “Ўзбек тилида семантик-функционал шаклланган гаплар талқин.”Фан” нашр. 2006

belgisini ifodalovchi (harakat, holat, xususiyat) ega haqidagi xabarni bildirgan boʻlakdir. Juda koʻp holatlarda kesim feʻldir va bu feʻl egada ifodalangan subyektning holat yoki harakatini belgilab beradi. Shu bilan birga, kesim gap qurilishida uyushtiruvchilik vazifasini bajaradi. Qolgan boʻlaklar kesimning kengaytiruvchilari yoki oʻsha kengaytiruvchilarning kengaytiruvchilari hisoblanadi. Bu jihatdan ega ham kesimning subyekt valentligini toʻldiruvchi boʻlak – gap tizimini kengaytiruvchi hisoblanadi. “Kesim gapning predikativ markazidir”, “kesim oʻzicha fikr ifodalash qobiliyati bilan ham ajralib turadi” degan qarashlar ham lingvistik adabiyotlarda oʻz aksini topgan. Biz bu boʻlimda kesimning tarkibiy qismi boʻlgan kesimlik kategoriyasi [Pm] haqida soʻz yuritmoqchimiz. Gap til bosqichida (lisoniy sathda) kesimlik koʻrsatkichlari (shakllari) bilan shakllangan atov birligi demakdir. N.K.Dmitriyev bu haqda “Kesimlik kategoriyasi mohiyatan sof sintaktik vazifa bajaruvchi morfologik kategoriyadir”,- deydi. Kesimlik kategoriyasi tarkibiy qismlari boʻlgan boʻlishli/boʻlishsizlik, maylzamon, shaxs-son shakllarining ham sintaktik qobiliyati gap doirasida voqelashadi. Kesimlik shakli esa gapning “joni” – markazini tashkil etuvchi kategoriyadir. Maʼlumki, kesimlik kategoriyasi toʻrtta grammatik maʼno majmuyidan tashkil topadi: $N+M+T+P = 1$. Tasdiq-inkor. 2. Mayl- modallik. 3. Zamon. 4. Shaxs-son. Oʻzbek tilida hukmdagi tasdiq-inkor, soʻzlovchining bayon etilayotgan fikriga munosabati (mayl), harakat-holatning nutq momentiga munosabati (zamon) va uning ishtirokchilariga aloqasi (shaxs-son) kabi maʼnolarning majmuasi kesimlik kategoriyasi vositasida shakllantiriladi. Oʻzbek tili substansial tilshunosligi nazariyotchilari – H.Neʼmatov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Qurbonova, M.Abuzalova, R.Bobokalonov, Sh.Shahobiddinova kesimlik kategoriyasini ilmiy asoslab berganlar. Gapda kesim hamma vaqt tarkiban murakkabdir. U lugʻaviy asos – atov birligi – [W] va gapning grammatik shakli – [Pm] qismlaridan iborat. Umuman aytganda, kesimlik kategoriyasi alohida kategoriya ekanligi, alohida shakllar tizimiga egaligi bugungi oʻzbek tilshunosligida ham oydinlashtirildi. Tilga olinganidek, ushbu kategoriya morfologik boʻlsa ham, sintaktik vazifaviy

tomoni uni kesimlik kategoriyasi deb atashga asos bo`ladi. Demak, kesimlik kategoriyasi har bir kesim tarkibida u yoki bu ko`rinishda (to`liq to`rtta unsur qatnashmagan bo`lishi ham mumkin), hatto [Ø] morfema bilan ifodalanishi mumkin. Lekin bu kesimlik kategoriyasining mavjud emasligidan darak bermaydi. U, albatta, har bir fe'l kesim va ot kesim tarkibida, shuningdek, atov gaplarda voqelanadi. Yuqoridagi fikrlardan quyidagicha xulosaga kelish mumkin: Kesim ikki tarkibiy qism [W] – atov birligi va [Pm] – kesimlik kategoriyasi ko`rsatgichlaridan tashkil topadi. Ammo o`zbek tilshunosligida sintaktik qurilishning sistem xususiyatlari boshqa sath hodisalariga nisbatan birmuncha keyinroq tadqiq etila boshlagan bo`lsa-da, bu borada sintaksisning asosiy birliklari bo`lgan so`z birikmasi va gap qurilishiga doir jiddiy ishlar amalga oshirildi. O`zbek tili sintaktik qurilishining sistem tadqiqi va uning natijalarini tavsiflashdan avval fanimizda gap qurilishining formal talqini hamda uning o`rni haqida fikr yuritish maqsadga muvofiqdir.

O`tgan asrning 20-yillarida o`zbek tili grammatikasiga ilmiy tamal toshlari qo`yila boshladi. Gap haqida Abdurauf Fitratning “Sintaksis”(“Nahv”) kitobida (1924-yilda chop etilgan) bir qancha ma`lumotlar berildi va bu darslik 1925-1930- yillarda uch marta nashr etildi. Bu kitobda gapga quyidagicha ta`rif berilgan: ”Bir fikr, bir o`y anglatuvchi so`z qo`shumi gapdir”. Shu davr talablariga mos ravishda vujudga kelgan Fitratning “Sintaksis” asari bilan bir qatorda N.Said, A.Yo`ldoshevlarning ”Grammatika”, H.G`oziyevning ”O`zbek tili grammatikasi” kitoblarini tilga olish o`rinlidir. Ushbu darsliklarda sodda gap va qo`shma gaplarni farqlashda ko`proq egaga tayanilgan. O`z navbatida, bu ega va kesimni subekt va predikat bilan qorishtirib, tahlil qilishga olib keldi. Ahamiyatli tomoni shundaki, o`sha davr sintaksisi uchun muhim bo`lgan *gap*, *sodda gap*, *gap bo`laklari*, *ega*, *kesim*, *ikkinchi darajali bo`laklar* kabi tushunchalar Yevropa tilshunosligidan kirib keldi. 1940-yilda esa A.G`ulomovning ”Ўзбек тили грамматикаси” nomli kitobi nashrdan chiqdi. Bu kitob pedagogika bilim yurti o`quvchilari uchun sintaksisdan darslik bo`lib, unda sodda gap boshqa darsliklardagiga qaraganda kengroq yoritilgan edi.

Darslikning ahamiyatli tomoni – unda sintaksisning nazariy tahlil usullari mukammal shakllanganligidadir. Quyidagi dalillar mazkur tahlil usullari haqida tasavvurni aniqlashtiradi:

1.Sodda gap ikki bosh bo`lakdan – ega va kesimning birikishidan iborat.

2.Kesim ega haqidagi biror xabarni tasdiq yoki inkor formada ifodalashga xizmat qiladi. Bosh bo`laklar ichida egaga mavqe beriladi. Kesim ega bilan shaxs-sonda moslashadi.

3.Sodda va qo`shma gaplarni aniqlashda egaga tayaniladi.¹⁸

Tilshunos olim R.Sayfullayeva ta`kidlaganidek, ”bosh bo`laklarga bunday yondashish mantiqiy subekt va predikat munosabatini grammatik ega va kesim munosabati bilan qorishtirib yuborishga olib keladi. Bu esa o`zbek tilshunosligida gap qurilishi Yevropa tilshunosligida gap qurilishi haqidagi ilmiy qarashlar ta`siri ostida shakllanganligidan va o`zbek tili darsliklari ham rus tili darsliklari asosida tuzilganligidan darak beradi. Rus tili darsliklari namunasi asosida tuzilgan qo`llanmalar XX asrning 90-yillarigacha amalda bo`ldi. XIX asrning ikkinchi yarmidan boshlangan Yevropa tilshunosligi me`yorlarida o`zbek tilini o`rganish ehtiyoji tilshunoslarimiz oldiga ona tili me`yorlarini belgilash va ommalashtirish, ”ona tili ta`lim mazmunini yangilash, o`zbek tili grammatik qurilishini rus tili grammatik me`yorlari chizmasi asosida baholash asoratidan qutqarish“ kabi maqsadlarni qo`ydi. O`zbek tilshunosligining Hind-Yevropa tillari va tilshunosligi ta`sirida rivojlanganligi o`zbek tilininig sintaktik talqinida ham bir talay muammolarni keltirib chiqardi.

Tilshunos olim M.Abuzalova qayd etganidek, an`anaviy o`zbek tilshunosligi Moskva formal tilshunosligi tamoyillariga tayangan holda o`zbek tili gap qurilishi talqinida rus tili ichki qurilishiga xos qonuniyatlarga ustuvorlik berib, tobelikning turkiy tillarga xos “o`ngdan chapga” ko`rinishini e`tibordan chetda qoldirdi. Oqibatda, boshqa gap bo`laklari (“chapdan o`ngga”) kesimga va faqat kesim egaga (“o`ngdan chapga”) tobelanishi haqidagi mantiqiy-grammatik qonuniyat “hukmronligi” vujudga keldi. Bu esa gapni baholash markazida ega

¹⁸ Шаҳобиддинова Ш. Ўзбек тили морф.яси умум–хусусийлик диал.си талқинида. I-жуз. -Андижон.1994. -98-бет

turishi haqidagi nazariyaga tayanishlarida ko`zga tashlanadi. Ushbu holat kesimning, xususan, gapning lisoniy mohiyati nazardan chetda qolishiga sabab bo`ldi. Natijada, gapga lisoniy birlik sifatida qarash, unga mufassal ta`rif shuningdek, gapning ontologik tavsifini berish ham muammo bo`lib qoldi.

Bu masalalar bilan XX asrning 90-yillariga kelib, o`zbek substansial tilshunosligi shug`ullandi. O`zbek substansial tilshunosligining vakillari bo`lgan H.Ne`matov, N.Mahmudov, A.Nurmonov, R.Sayfullayeva, B.Mengliyev, M.Qurbonova, M.Abuzalova, S.Nazarovalar o`z tadqiqotlarida o`zbek tili sintaktik hodisalarida ham substansial va aksidensial jihatlarni farqladilar, gap va so`z birikmalarining lison-nutq farqlanishi nuqtayi nazaridan izchil tavsifini berdilar hamda o`z tadqiqotlarida so`z birikmasi, sodda gap, qo`shma gap, so`z-gaplarning substansial mohiyati, lisoniy-sintaktik qoliplarini ishlab chiqishdi. Nomlari sanab o`tilgan tilshunoslar gapning eng kichik qurilish qolipini lisoniy birlik sifatida qabul qilishdi.¹⁹

1.4. [WPm]= [WP] – sodda gapning eng kichik qurilish qolipi sifatida

Tilga sistemaviy yondashuvning negizi lison-nutq hodisalarini farqlash bo`lganligi sababli tadqiqotchilarning bir guruhi sistem sintaksis tahlilini izchil ravishda gapning til sathidagi eng kichik (minimal) qurilish qolipini ishlab chiqishdan boshladi. Negaki, yaxlit sintaktik talqinni ishlab chiqish uchun gap qolipi bosh mezon vazifasini o`taydi. Gapni o`rganish uchun uning "joni"ni - "til sathidagi eng kichik qolip" ni belgilash zarur edi.

Tilshunoslar sodda gapning til sathidagi mohiyatini belgilashda gap haqidagi sintaktik nazariyaning quyidagi talqiniga asoslanishdi:

1. Gapning eng kichik qurilish qolipi lisoniy birlik sifatida ongimizda mavjud umumiy birlik bo`lib, u nutqimizda fikrni lisoniy qonunlarga muvofiq tarzda shakllantiruvchi va voqelantiruvchi imkoniyatdir.

¹⁹ Абузалова М. Ўзб. тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. 1994.-10-36 б

2. Gapning eng kichik qurilish qolipini belgilashda uning tashqi qurilishi, ichki qurilishi va mohiyati ajratildi.

3. Gapning eng kichik qurilish qolipidan o`rin oladigan tarkibiy qismlarning mohiyatini belgilashda birikuvchanlik (valentlik), ya`ni lug`aviy birliklarga xos ma`noviy (semantik) va sintaktik, shuningdek, kesimlik shakllariga xos morfologik birikuvchanliklarga asoslanildi.

4. O`zbek tilida gapning eng kichik qurilish qolipini belgilashda Hind-Yevropa tillari bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy tafovut diqqat markazida turdi. Bu farq esa quyidagicha: Hind-Yevropa tillariga bir tarkibli

4. O`zbek tilida gapning eng kichik qurilish qolipini belgilashda Hind-Yevropa tillari bilan turkiy tillar orasida gap qurilishidagi asosiy tafovut diqqat markazida turdi. Bu farq esa quyidagicha: Hind-Yevropa tillariga bir tarkibli gaplar umuman xos emas va gap qech qachon egasiz bo`la olmaydi. Turkiy tillar, xususan, o`zbek tilida "Men xatni yozaman, sen xatni olib kelasan" gapi bilan "Xatni yozaman, olib kelasan" gapi orasida keskin farq yo`q, ya`ni o`zbek tilida kesim shaxs-son jiqatdan mukammal shakllangandir .

Yuqorida keltirilgan to`rt asos inobatga olinib, sodda gapning eng kichik qurilish qolipi [WPm] sifatida belgilangan.²⁰ Gapning lisoniy-sintaktik mohiyatini umumlashtiruvchi til sathidagi eng kichik qurilish qolipi tilshunos M.Abuzalova tomonidan aniqlangan. Sodda gapning til sathidagi eng kichik qurilish qolipi M.Abuzalovanning "Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши" mavzuyidagi ilmiy ishida maxsus tadqiqot manbayi bo`ldi. Mazkur ishda o`zbek tilida gapning lisoniy bosqichdagi eng kichik qurilish qolipi – [WPm] – (atov birligi – [W] + kesimlik ko`rsatgichlari – [Pm]) ko`rinishiga ega ekanligi isbotlangan. Shu asosga tayangan holda sodda gapning nutqiy va lisoniy qurilishi orasidagi asosiy tafovut ochib berilgan edi .

²⁰ Қаранг: Нурмонов А. Гап ҳақидаги синтактик назариялар.-Т..Фан,1982.-100-б. Яна: Нурмонов А. Тилни системали ўрганиш ва синтаксиснинг айрим мунозарали масалалари// Ўзбек тили ва адабиёти,1998.№5 б.20-26; Расулов Р. Ўзбек тилидаги ҳолат феъллари ва уларнинг облигатор валентликлари; Шаҳобиддинова Ш.Ўзбек тили морфологияси умумийлик – хусусийлик диалектикаси талқинида.1-жуз.-Андижон.1994.-98-бет;

Bunda [W] – kesimning, gap kesimining atash, lugʻaviy maʼno bildirishga xizmat qiladigan qismi boʻlib, mustaqil soʻz turkumiga oid boʻlgan, yaʼni kesim vazifasida kela oladigan soʻzga, soʻz birikmasiga, kengaytirilgan birikmalar (sifatdosh, ravishdosh, harakat nomlari oborotlari)ga teng kelishi mumkin. Boshqacha qilib aytganda, [W] lisoniy qolipdagi imkoniyat boʻlib, nutqda atov birligi vazifasini oʻtay oladigan va shu nutqning istagan bir birligi (soʻz, soʻz birikmasi va hatto gap) shaklida voqelanishi mumkin. [Pm] esa atov birligi [W]ni gap qolipi shakliga keltiruvchi vositalar majmuasining ramzi boʻlib, u nutqda kesimlik kategoriyasi koʻrsatgichlari shaklida reallashadi. Demak, M.Abuzalova taʼkidlaganidek, “til bosqichida gap atov birliklarining kesimlik kategoriyasi koʻrsatgichlari bilan shakllangan koʻrinishidir. Bu esa [WPm] ga tengdir” . Gapni bunday taʼriflash Yevropa tilshunosligi va unga hamohang ravishda A.Gʻulomov tomonidan oʻzbek tilshunosligida ishlab chiqilgan gapning mohiyati “ega+kesim” munosabatidagi butunlikdadir, degan taʼlimotini turkiy tillarning ichki xususiyati – kesimning hamisha toʻliq shakllanganligi sababli gap egasining shaxsi va soni aniqligi asosida toʻldiradi. Ega gapning eng kichik qurilish qolipi tarkibiga kirmaydi va gap qurilishida alohida mavqega molikdir .

Gapning eng kichik qolipi, til birligi, imkoniyat va umumiylik sifatida ongimizda yashovchi [WPm]=SG har qanday ong birligi kabi bevosita kuzatishda berilmagan. Aniqrogʻi, biz [WPm]=SGning rang-barangligini, xilma-xilligini va turli-tumanligini toʻlaligicha hech qachon koʻra olmaymiz, eshita olmaymiz, yoza olmaymiz. Faqat bizning ongimizgina uni butun murakkabligida qamrab oladi. Chunki ongimiz [WPm]=SGni gapning umumiyliigi va imkoniyati sifatida umumlashtirar ekan, [WPm]=SGning tarkibiy qismlari boʻlgan [W]ning ham, [Pm]ning ham yuz minglab juzʼiy xususiyatlaridan koʻz yumadi. Chunonchi, [W] vazifasida minglab oʻzbekcha soʻzlardan istalgan biri kela oladi va har biri alohida xususiylik boʻlib, qator oʻziga xosliklarga egadir. "Gapning umumiy qolipini shakllantirganimizda biz shu soʻzlarning juzʼiy xususiyatlariga (maʼnosi, turkumi, uslubi, boʻyogʻi va h.)

e'tibor bermadik va hamma so'zlar uchun umumiy bo'lgan bitta xususiyat – nutqda atash, nomlash qobiliyatiga tayandik",–deb yozadi M.Abuzalova. [WPm]=SGning [W] qismi o'rnida nafaqat oddiy so'zlar, balki so'zlarning xilma-xil birikishidan tuzilgan milliardlab so'z birikmalari ham kelishi mumkin va bu so'z birikmalarining har birida o'ziga xos xususiyatlar bor. [WPm]=SG qolipida [W] ning o'rnini egallay oladigan birliklar sirasiga so'z birikmalari ham kiritilar ekan, miqdoran cheksiz bo'lgan so'z birikmalarining har biri uchun xos bo'lgan juz'iy xususiyatlar e'tiborga olinmay, ularning bitta umumiy xususiyati, qobiliyati – atash, nomlash vazifasini bajara olishiga tayanilgan. Xuddi shunday fikrni [WPm]=SGning [Pm] qismiga nisbatan ham aytish mumkin. O'zbek tilida [Pm]ning yuzdan ortiq yuzaga chiqish shakllari mavjud. Har bir so'z shaklining juz'iy xususiyatlari e'tiborga olinmay, barcha shakllar uchun umumiy bo'lgan tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son ma'nolarining birgalikda ifodalanishiga asoslanib, [Pm] bir butunlik sifatida olingan. [W] ham, [Pm] ham nutqda cheksiz miqdorda va xilma-xil turda voqelanadi. Biz bularning barchasini hech qachon sanay olmaymiz. Zero, o'zbek nutqida qo'llanilgan, qo'llanilayotgan va kelgusida (o'zbek tilida gapning yangicha qurilish qolipi rivojlanmaguncha) qo'llaniladigan barcha gaplarda [WPm]=SG u yoki bu shaklda voqelanadi. [WPm]=SG – gapning eng kichik qolipi til birligi sifatida nutqdagi yozma va og'zaki, imo-ishora va boshqa shakldagi gaplar sifatida voqelanadi. Biz uning voqelanish shakllarini sanab nihoyasiga yeta olmaymiz. Lekin fonema va morfemalarning cheksiz nutqiy ifodalanish shakllarini ma'lum bir ko'rinish xillari, tiplariga, cheksiz xususiy grammatik ma'nolarini oraliq grammatik ma'nolariga birlashtirganimizdek (bunday oraliq birliklar sistemaviy tilshunoslikda allo nomi bilan ataladi: allofon, allomorf va h.), [WPm]=SGning cheksiz nutqiy voqelanish shakllarini umumiylik bilan, ya'ni [WPm]=SG, uning muayyan voqelanishi – nutqdagi konkret gaplar oralig'ida turgan [WPm]=SG turlarini, ya'ni allogaplarni ajratamiz va sanab o'tishimiz mumkin. Bu bo'limning sarlavhasini shu ma'noda tushunish lozim.

Ma'lumki, [Pm]ning ma'no tarkibi tasdiq/inkor, mayl/zamon, shaxs/son kabi tarkibiy qismlardan iborat. Bu tarkibiy qismlarning har biri asosida [WPm]=SG, uning nutqdagi eng qisqa ko'rinishi – ixcham gaplar kengayishi mumkin. [Pm]ning har bir ma'no tarkibi asosida ixcham gaplarning kengayishi o'z xususiyatlariga ega va ko'pincha, mayl, zamon shakllarining manolari bilan aloqadordir. Lekin [Pm]ning tarkibidagi bir ma'no turi, aniqrog'i, shaxs/son ma'nosi asosida ixcham gapning kengayishi gap qurilishida muhim ahamiyat kasb etadi. Bu ham bo'lsa, gap tarkibida eganing bo'la olishi yoki bo'la olmasligi masalasidir.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, ega gap qurilishida aniqlovchi, to'ldiruvchi, hollardan ko'ra boshqacharoq mavqega ega. An'anaviy tilshunosligimizda ikkinchi darajali bo'laklar deb ataladigan bu bo'laklarning in'ikosi (aksi, simvoli, qandaydir ishorasi) [WPm] tarkibida yo'qdir. Lekin egaga ishora [Pm] tarkibida mavjud.

Egani ifodalovchi qandaydir ishoraning gap markazi, bosh bo'lagi hisoblangan kesimda bo'lishi eganing gap qurilishida boshqa gap bo'laklaridan farqli o'rin tutishini ko'rsatadi. Ega gapning qurilishi uchun majburiy, zaruriy bo'lak mavqeyini egallamasa ham, aniqlovchi, to'ldiruvchi, hollardan ko'ra yuqori mavqega ega, chunki uning belgilari [WPm] tarkibida mavjuddir. Shuning uchun [WPm] ixcham ko'rinishda bo'lgan kesimni gap markazi, gapning bosh bo'lagi deb baholangan bo'lsa, ega gapning birinchi darajali bo'lagi sifatida qabul qilingan. Ixcham sodda gaplarda eganing bosh bo'lakka ishora orqali tiklash mumkin yoki mumkin emasligiga ko'ra ixcham sodda gaplar ikki turli bo'ladi (ot markazli gaplar ham, fe'l markazli gaplar ham):

- a) ikki tarkibli gaplar;
- b) bir tarkibli gaplar.

Ikki tarkibli ixcham sodda gaplarda kesim tarkibidagi shaxs/son ko'rsatgichlari asosida gapning egasi tiklanishi mumkin:

Yozdim → Men yozdim.

Yuvdi → U yuvdi.

Bir tarkibli ixcham sodda gaplarda kesim tarkibida III shaxs birlik son ma'nosiga ishora bo'lsa ham, gapning egasini tiklash mumkin emas. Chunonchi, "Yuvildi", "O'qisa bo'ladi", "Aytish mumkin", "Bahor edi" va h.

Eganing gapda ifodalangan va ifodalanmaganligiga ko'ra ikki tarkibli sodda gaplarning o'zi yana ikki turli bo'ladi:

- a) ikki tarkibli egali sodda gaplar;
- b) ikki tarkibli egasiz sodda gaplar.

Faqat ega bilan kengaygan ikki tarkibli sodda gapga nisbatan sodda yig'iq gap an'anaviy tushunchasini ishlatishimiz mumkin. Bir tarkibli sodda gapning yig'iq ko'rinishi ixcham gapga teng bo'ladi. Shunday qilib, [W]ning, [Pm]ning ifodalanishi va [Pm] asosida kengayishiga ko'ra gaplarning quyidagi turlarini berish mumkin.

I. Bir tarkibli gaplar.

1. Ot markazli yig'iq kesimlikli ixcham sodda gap.
2. Ot markazli yoyiq kesimlikli ixcham sodda gap.
3. Ot markazli analitik kesimlikli ixcham sodda gap.
4. Fe'l markazli yig'iq kesimlikli ixcham sodda gap.
5. Fe'l markazli yoyiq kesimlikli ixcham sodda gap.
6. Fe'l markazli analitik kesimlikli ixcham sodda gap.

II. Ikki tarkibli gaplar.

1. Ikki tarkibli egasiz ot markazli yig'iq kesimlikli ixcham sodda gap.
2. Ikki tarkibli egasiz ot markazli yoyiq kesimlikli ixcham sodda gap.
3. Ikki tarkibli egasiz ot markazli analitik kesimlikli ixcham sodda gap.
4. Ikki tarkibli egasiz fe'l markazli yig'iq kesimlikli ixcham sodda gap.
5. Ikki tarkibli egasiz fe'l markazli yoyiq kesimlikli ixcham sodda gap.
6. Ikki tarkibli egasiz fe'l markazli analitik kesimlikli ixcham sodda gap.
7. Ikki tarkibli egali ot markazli yig'iq kesimlikli sodda gap.
8. Ikki tarkibli egali ot markazli yoyiq kesimlikli sodda gap.
9. Ikki tarkibli egali ot markazli analitik kesimlikli sodda gap.
10. Ikki tarkibli egali fe'l markazli yig'iq kesimlikli sodda gap.

11. Ikki tarkibli egali fe'l markazli yoyiq kesimlikli sodda gap.

12. Ikki tarkibli egali fe'l markazli analitik kesimlikli sodda gap.

[W] asosida kengayish, aslida, [W] vazifasida kelgan soʻzning semantik valentligi asosida kengayishidir. Albatta, soʻzning kengaytiruvchilari va gap boʻlaklari orasidagi munosabatlar mustaqil bir tadqiqot manbayidir. Lekin biz nutqda voqelangan gaplarning qoliplari haqida soʻz yuritar ekanmiz, bu masalaga hech boʻlmasa, bir oz toʻxtalib oʻtishimiz zarur. Nutq tizma tabiatiga ega. Nutqning tizmalik tabiati nutqda yuzaga chiqqan har bir hodisaning ketma-ketligini talab qiladi. Soʻzning kengaytiruvchilari (soʻz semantik valentliklarining aktantlari) ham nutqda birin-ketinlik bilan – kengaytiruvchi (tobe) kengaytiriluvchidan (hokimdan) oldin keladi va albatta, gap qurilishida – voqelangan gap qolipida alohida bir oʻrin olib, gapning voqelangan qurilishiga taʼsir etadi.²¹

Nutqdagi gaplar yuqorida koʻrsatilgan qurilish xususiyatlaridan boshqa yana oʻnlab koʻrsatgichlarga – nutqiy xususiyatlarga va nutqiy maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Ishimizda koʻrsatilgan til bosqichidagi sodda gapning 6 asosiy qurilish qolipi nutqda voqelanishi uchun boshqa xususiyatlarga ham ega boʻlishi kerak.

Bulardan biri–ohang, intonatsiya va u bilan uzviy bogʻliq boʻlgan gapning ifoda maqsadiga koʻra darak, soʻroq, buyruq, undov, his-hayajon, soʻroq-undov (ritorik) va hokazo maʼnolarga ega boʻlishidir. Bundan tashqari, gap nutqda, albatta, maʼlum bir modal maʼnosiga koʻra neytral, gumon, ishonch, taxmin, taajjub kabi maʼnolarga ega boʻlishi mumkin. Gapda ega ifodalanmagan boʻlishi, umuman, boʻlmasligi, majhul, aniq, umumlashgan va noaniq boʻlishi mumkin. Shu kabi maʼnolar gapning tildagi eng kichik qolipiga, umuman, aloqador emas. Shuningdek, oʻzbek tilshunosligida vositali va vositasiz toʻldiruvchining yigirmaga ga yaqin turi, holning qirqdan ortiq xili ajratiladi

²¹ Abuzalova M. Ўзбек тилида содда гапнинг энг кичик қурилиш қолипи ва унинг нутқда воқеланиши. Ном. дис. автореф. -Т., 1994. 22-б.

hamda nutqda bunday to'ldiruvchi yoki holning bittasi bilan kelgan gap hol va to'ldiruvchining ikkinchi turi bilan kelgan gapdan, albatta, farq qiladi. Lekin bu farqlar ham gapning tildagi kichik qolipiga–o'zbek jamiyati a'zolari uchun gap ramzi sifatida mavjud bo'lgan umumiy, zaruriy va majburiy bo'lgan birlik [WPm]=SG va uning asosiy qurilish ko'rinishlari, ya'ni:

$$\begin{array}{ll} [\text{IWPm I}]=\text{SG}, & [\text{IWPm Yo}]=\text{SG}, \\ [\text{E+ IWPm Yi}]=\text{SG}, & [\text{E+ IWPm Yo}]=\text{SG}, \\ [\text{E- IWPm Yi}]=\text{SG}, & [\text{E- IWPm Yo}]=\text{SG} \end{array}$$

qoliplariga aloqador bo'lmaydi. Balki, shu qurilish qoliplarining shaxsni tavsiflash, gap markazini hamda kesimlik ko'rsatgichlarini moddiy shaklda ifodalash, modal ma'nolarni berish, gapni ifoda maqsadiga ko'ra nutq sharoitiga moslashtirish, gapda ohang tugalligini shakllantirish kabi tom ma'noda nosintaktik hodisalarning biz yuqorida sanab o'tgan [WPm]=SG va uning qurilish ko'rinishlarining ustqurmasidir. Bunday gap qurilishiga aloqador bo'lmagan hodisalar nutqdagi muayyan gaplarda nosintaktik hodisalarning gap qurilishidagi aksi – in'ikosi – tajallisi sifatida qaralishi lozim.

XULOSA: Shunday ekan, bu bobda o'rganilgan masalalar tahlili va tavsifi asosida quyidagi xulosalarga kela olamiz:

–[Pm] ning o'zbek tilida yuzdan ortiq yuzaga chiqish shakllari mavjud bo'lsa ham, har bir shaklning juz'iy xususiyatlarini e'tiborga olmay, barcha shakllar uchun umumiy bo'lgan tasdiq/inkor, mayl, zamon, shaxs/son ma'nolarining birgalikda ifodalanishga tayanib, [Pm] bir butunlik sifatida olinadi; – kesimlik kategoriyasi shakllari [Pm] mavqeida voqelashar ekan, nutqda qanday ko'rinishda ifodalanishidan qat'iy nazar, o'zbek tilida sodda (va umuman) gap lisoniy-sintaktik qurilishini belgilashga xizmat qiladi;

–[W] ham, [Pm] ham nutqda cheksiz ko'p turda voqelanish imkoniyatiga ega. Bevosita kuzatishda berilgan nutqiy sintaktik birliklar kabi sodda gap turlari ham cheksiz bo'lib, bu voqelanish turlarining miqdorini hech vaqt sanab, nihoyasiga yetib bo'lmaydi. Chunki sodda gapning eng kichik qolipi – [WPm]=SG til birligi sifatida o'zbek nutqida yozma va og'zaki (va boshqa)

shaklda qo'llanilgan, qo'llanilayotgan va qo'llanilishi mumkin bo'lgan barcha gaplarda voqelanadi;


–nutqimizdagi grammatik shakllangan sodda gaplarning rang-barang nutqiy ko'rinishlari umumiy $[WPm]=SG$ qolipining $[IWPmI]=SG$, $[IWPmYo]=SG$, $[E+IIWPmYi]=SG$, $[E+IIWPmYo]=SG$, $[E-IIWPmYi]=SG$, $[E-IIWPmYo]=SG$ variantlarida leksik-grammatik to'ldirilgan holda voqelanishi natijasida yuzaga keladi;

– shunday qilib, nutqiy voqelanishda bu sodda gap qoliplari gapning nutqda yashashi uchun zaruriy bo'lgan, lekin mohiyatan nosintaktik bo'lgan kategoriyalarning zarralari bilan bosqichma-bosqich boyitilib, nutqimizda o'nlab sintaktik, morfologik, leksik, stilistik kategoriyalarning birliklari, zarralari bilan murakkablashtirilgan, bezatilgan shaklda yuzaga chiqadi.

II BOB SODDA GAP QURILISHIDA BINAR QURILMALI GAPLAR VA AJRATILGAN BO'IAKNING IFODALANISHI.

2.1. Fransuz tilida binar qurilmali nutqiy hosilalar to'g'risida

O'zbek tilshunosligi so'ngi tadqiqotlarida Yevropada yaratilgan sistem-
struktur tilshunoslik ta'limoti va uning nazariyotchilari (V.Gumbolt, F.de
Sossyur, Sh.Balli, G.Giyyom, K.Jerman, J.Dyubua, R. Yakobson, A.Tenyer
kabilar) xususida ko'plab ta'kid va sharhlar uchraydi. Unda ko'zlangan sistem-
struktur tilshunoslik tahlil usullarining afzal jihatlarinigina ta'kidlash emas,
balki ilg'or lingvistik nazariy qarashlarni o'zbek tiliga olib kirib, ulardan unumli
va imkon qadar qiyosiy-tipologik aspektlarda foydalanishdan iborat. V.
Gumbold qariyb ikki asr muqaddam: «Har qaysi tilning o'z sistemasi bor,
tilshunos shuni tadqiq qilishi kerak» deb bejiz aytmagan edi.²² So'ngi yillarda
lisoniy va nutqiy xodisalarning dialektik qonuniyatlar metodologiyasi zamirida
tilshunoslikning barcha sathlaridagi muammoli masalalar chuqurroq tahlil
qilinmoqda. O'zbek tilining barcha bo'g'inida rostakam «turkona nazokat»
sezila boshlanmoqda va uni «ortiqcha grammatik yuklardan» xoli qilishga
astoydil kirishilgani mustaqilligimiz sharofatidandir. Darhaqiqat, til va nutq
ularning mazmuni va o'rtasidagi munosabatlar juda murakkabdir. Bu ta'limot
tadqiq etilayotgan ishimiz uchun ham ahamiyatlidir. Xuddi shu yo'nalishda
o'zbek tilidagi




²² Bobokalonov R.R. O'zbek tilida semantik-funksional shakllangan so'z-gaplar talqini, «Fan», Toshkent: 2006. 3-124 b.

ga ajratilib tadqiq qilindi.

Fransuz tilidagi so'ngi ilmiy adabiyotlarda esa : 1. Tipik 2. Atipik gaplar sususiyati bir-biridan farqlanib ko'rsatiladi.

Hozirgi fransuz adabiy tilida gap qurilishi uchun atipik hodisasi sifatida kanonik model asos qilib olingan va uni tipik gaplarga nisbatan ziddiyatga qo'yish mumkin.

Kanonik modelli atipik gaplarni:



kabilar tashkil etadi.

O'zbek tilida atipik gaplarni SFSHSGlar bilan qiyoslash mumkin. Sintaktik qurshovda SFSHSG larning ma'no imkoniyatlari chegaralanganligi, o'zida grammatik shakl talab etmasligi, boshqa so'zlar bilan semantik jihatdan aloqaga kirishish qobiliyatidan mahrumligi, gap bo'lagi sanalmasligi va gapdagi bo'laklar bilan bog'lanmasligi singari belgilari aniqlashtirilgan. Fransuz tilida esa bu belgilar to'liq asos qilib olinmaganligi kuzatiladi. SFSHSGlar tarkibida uchramaydigan *prezantativ gaplar bilan konstruksiya, nominativ*

gaplar, muallif gapi, kirish so'z va gaplar qatorida *so'z-gaplar* birgalikda kanonik model (aloxida o'ziga xos qurilish) ga ega bo'lishi so'ngi tadqiqotlarda e'tirof etilmoqda. Til va nutq dixotomiyasi moxiyatidan kelib chiqqanda gapning minimal qurilish qoida qolipi fransuz va o'zbek tillarida keskin farqlanadi. Gaplarning formal qurilishida (*forme passive subordonnée, constructions binaires, les énonces à un seul terme, l'emphase, mots-propositions* alohida gap turlarida) ham xuddi shu holatni uchramiz.

Semantik-funksional shakllangan gaplar, odatda *modal, undov, tasdiq-inkor, taklif-xitob* ma'noli so'zlardan iboratdir. Bular GSHG lardan, ya'ni (WPm) qolipli gaplardan farqli o'laroq (WP) ramzida beriladi.

Darhaqiqat, fransuz leksikasi va sintaksisi oralig'ida so'z-gap bo'lish qobiliyatiga ega bo'lgan leksik birliklar ham mavjud. Ularning leksik- semantik va sintaktik xususiyati shu vaqtga qadar ilmiy asosda aniqlashtirilmagan. Ammo biz yuqorida ta'kidlab o'tgan SFSHSG larning ontologik belgilari kanonik modelli atipik gaplarda ham o'z ifodasini topganligini e'tirof etgan holda binar konstruksiyali gaplarning leksik-semantik va funksional xususiyatlari yuzasidan ilmiy axborot berishga urinmoqchimiz.

Fransuz tilshunoslari binar oppositsiya muammolari haqida XX asrning birinchi yarmida fikr yuritishgan. Jumladan, Anre Martine – Sorbonna universiteti professori, funksional lingvistikaning asoschilaridan biri – leksikologiyaga doir o'zining “*La linguistique synchronique*” nomli ilmiy asarida jarayon va obyekt munosabatida binar oppozitsiyaning paydo bo'lishi haqida qiziqarli dalil-isbotlar keltirib o'tgan.

Masalan, **table predmet** (o'rindiq) ma'nosining “**table**” shaklidagi ifodasi bilan [tabl] ifodalanuvchi o'rtasida binar ziddiyat lison (nutq) ixtilofida ko'zga tashlanadi. Olimning fikridan kelib chiqadigan xulosa shuki, binar oppozitsiya “belgi va belgilanuvchi” (*le signifié et le signifiant*) munosabatida namoyon bo'ladi. Ya'ni, bu munosabat leksik birliklarning nutq jarayonida kuzatilishi uchun ahamiyatlidir.

Binar konstruksiya mohiyatan binar oppozitsiya bilan uzviy bog'liqlikka ega bo'lishiga qaramay, undan birmuncha xususiyatlari bilan keskin farqlidir. Bu farqiyat nimada namoyon bo'ladi?

1. Leksik birliklarning sintaktik qurilishida, ya'ni funksional mohiyat kasb etishida.

2. Leksik birlik binar oppozitsiyada o'z mohiyatini saqlagan holda leksik ma'no ifodalaydi. Binar konstruksiyada esa, leksik ma'nodan ko'ra sintaktik qurilish muhim ahamiyat kasb etadi.

3. Sintaktik qurilishning shaklan tuzilishida. Gap vazifasidagi leksik birlik yoki leksik qurilma mohiyatan muayyan bir gap turiga xoslashadi.

Masalan, ot turkumining binar konstruksiyadagi birlamchi vazifasi nominal (atov) gap bo'lishi bilan izohlanadi. Uning predlog determinativlari bilan ifodalanishi esa, to'liqsiz gapga aloqador bo'ladi. Biz sintaktik qurilishning formal tuzilishi deganda, uning qaysi gap turiga mansubligini e'tiborga olamiz. Shu o'rinda Martin Rejel, Jan Kristof, Relat va Rene Reyyollarning «*Grammaire méthodique du français*» (2) o'quv darsliklarida "binar konstruksiya" termini leksik-sintaktik jihatdan alohida gap "komponent"i sifatida (nisbiy ma'noda) qo'llanganinini e'tirof etishimiz lozim. ("binar konstruksiya" yoki "binar qurilishli gap" termini alohida gap turi sifatida qayd etilmagan). Unda "binar oppozitsiya" va "binar konstruksiya" terminlari ikki farqli ma'noda: 1) leksik semantik; 2) sintaktik-stilistik planda o'rganilgan.

Alohida lisoniy qurilishga ega bo'lgan binar konstruksiya SFSHSG uchun ahamiyatli nutqiy hodisadir. Bularning tadqiqi qiyosiy tipologiya va nazariy gammatika uchun ahamiyatlidir.

Fransuz tili tahlili shundan dalolat beradiki, ko'plab gaplar nisbiy ikki mustaqil bo'laklardan iborat bo'lishi mumkin. Bunday bo'laklar gap yarusida oppozitsiya hosil qiladi. Ammo ularda gap uchun xarakterli bo'lgan mantiqiy hukm alohida-alohida ko'zga tashlanmaydi. Aksincha, oppozitsiyadagi birinchi qismning mazmuni ikkinchi qism (bo'lak) mazmuni bilan bog'lanib izohlanadi va bu mazmunan bog'lanish bir tugal fikrga teng keladi. Buning asosiy sababi,

sodda gapning binar oppozitsiyada turishidir. Boshqacha qilib aytganda, fransuz tilidan sodda gaplar binar oppozitsiyaga o'tganda nisbiy (mustaqil) ikki komponentli gaplarni hosil qiladi. Ularda komponentlar ikkita bo'lib ko'ringanda ham mantiqiy hukm bitta bo'ladi va kesimlik ko'rsatkichlarini yo'qotadi.

Qiyoslaymiz:

Sodda gapning binar oppozitsiyasi	Sodda gapning me'yoriy qurilishi
<i>Belles, les filles!</i>	<i>Les filles sont belles.</i>
<i>Magnifique, ce tableau !</i>	<i>Ce tableau est magnifique.</i>
<i>Drole, cette histoire !</i>	<i>Cette histoire est drole.</i>
<i>Delicieux, ce plat !</i>	<i>Ce plat est délicieux.</i>
<i>Dangeureux, ce pont.</i>	<i>Ce pont est dangeureux.</i>
<i>Capricieux, cet homme.</i>	<i>Cet homme est capricieux.</i>
<i>Claire, votre explication !</i>	<i>Votre explication est claire.</i>
<i>Heureux, les pauvres !</i>	<i>Les pauvres sont heureux.</i>
<i>Artificiel, son rire.</i>	<i>Son rire était artificiel.</i>
<i>Beau, le temps !</i>	<i>Le temps est beau.</i>
<i>Autobiographique, le roman.</i>	<i>Le roman est autobiographique.</i>
<i>Aveugle, cette femme.</i>	<i>Cette femme est aveugle.</i>
<i>Aviateur, son fils.</i>	<i>Son fils est aviateur.</i>
<i>Jaloux, mon mari.</i>	<i>Mon mari est jaloux.</i>
<i>Pardonnable, ce garçon.</i>	<i>Ce garçon est pardonnable.</i>
<i>Nombreuse, sa famille.</i>	<i>Sa famille est nombreuse.</i>
<i>Inutilisable, sa voiture.</i>	<i>Sa voiture est inutilisable.</i>
<i>Unique, sa fillette !</i>	<i>Sa fillette est unique.</i>
<i>Cacochyme, ce malade.</i>	<i>Ce malade est cacochyme.</i>
<i>Faible, ce boxeur.</i>	<i>Ce boxeur est faible.</i>

<i>Fantastiques, tes idées !</i>	<i>Tes idées sont fantastiques.</i>
<i>Flegmatique, cette personne !</i>	<i>Cette personne est flegmatique.</i>
<i>Compréhensible, cette règle !</i>	<i>Cette règle est compréhensible.</i>
<i>Rapide, ce moto!</i>	<i>Ce moto marche rapidement.</i>
<i>Prudent, ce chauffeur.</i>	<i>Ce chauffeur conduit prudemment.</i>
<i>Chaleureux, l'été!</i>	<i>L'été est chaleureux.</i>
<i>60 degrés, la température!</i>	<i>La température montre 60 degrés.</i>
<i>Jeune, l'avocat!</i>	<i>L'avocat est jeune.</i>
<i>Beau, ce paysage!</i>	<i>Ce paysage est beau.</i>
<i>Ancienne, cette boucle d'oreille!</i>	<i>Cette boucle d'oreille est ancienne.</i>
<i>Laborieux, ces pauvres !</i>	<i>Ces pauvres sont laborieux.</i>
<i>Paresseux, Luc !</i>	<i>Luc est paresseux.</i>
<i>Charmantes, ces dames !</i>	<i>Ces dames sont charmantes.</i>
<i>Si tendre, son amour !</i>	<i>Son amour est si tendre.</i>
<i>Discutable, ce thème !</i>	<i>Ce thème est discutable.</i>
<i>Voyante, M.me Leblanc !</i>	<i>M.me Leblanc est voyante.</i>
<i>Curieux, votre fils !</i>	<i>Votre fils est curieux.</i>
<i>Avare, ce monsieur !</i>	<i>Ce monsieur est avare.</i>
<i>Gaté, cet enfant !</i>	<i>Cet enfant est gaté</i>

Ko'rinadiki, sodda gapning binar oppozitsiyasida sintaktik aloqaning vositachi unsurlari uchramaydi, lekin qismlar ma'lum va muayyan pauza (ohang) orqali o'zaro bog'langanliklari seziladi. Binar qurilishli gaplar haqida fransuz tilshunoslari Martin Rejel, Jan Kristof, Pellat, Rene Reullar o'z munosabatlarini ma'lum qilishgan. Biroq shuni ta'kidlash kerakki, unda sodda gapning boshqa turlari, chunonchi to'liqsiz gaplar va so'z-gaplar turlari bilan aralashtirib tushuntirilgan. Bizningcha, binar qurilishli gaplar sodda gapning

alohida ko'rinishi sifatida baholanishi mumkin va uning chegarasi, ko'rinishlari alohida tadqiq etilishi qiyosiy tilshunoslik uchun ham ahamiyatlidir. Ushbu tadqiqot ishida yuqoridagi holatlarni amaliy o'rganishga birmuncha harakat qilib ko'ramiz.

2.2. Fransuz tilida binar qurilmali nutqiy hosilalar talqini

Har bir gapning real borliq haqida biror fikr, xabar bayon qilishi gap mundarijasining voqelik bilan bog'liq ekanligini ko'rsatadi. Bu hodisa - gap mundarijasining real voqelik bilan aloqador hodisasi predikatsiya hisoblanadi.

Yuqorida aytib o'tganimizdek, gapni predikatsiya shakllantiradi: bu grammatik kategoriya-umumiy gapga xos xususiyat. Predikativlikni kesim ko'rsatadi. Kesim umumiy predikativlik ma'nosini konkret modellik, zamon, shaxs kategoriyalari ifodalaydi. Predikativlikni shakllatirishda intonatsiyaning ham ishtiroki bor: intonatsiya gapga xos bo'lgan universal vositadir. Anglashiladiki, predikativlikni ifodalash gapning paradigmasi-predikativlikni bildiruvchi butun formalar sistemasi bilan bog'liq.

Gap fikrni ifodalaydi, ma'lum maqsadni bayon qiladi. Bu hodisa birinchidan, shu gapdagi fikrning borliqqa munosabti-modallik (reallik, gumon, taxmin, istak kabilar) bilan, zamon va shaxs bilan bog'lanadi. Demak, predikativlik fe'l formalari va intonatsiya orqali ifodalanadi.

Fransuz tilida predikativlik shakli ikki strukturasidan ega kesimdan tarkib topgan. Predikativlik munosabatlari denotative, logik va structural shaklning oqibati natijasida shakllanadi hamda o'z formasini tafakkur va til normalarida namoyon etadi. Predikativlikning eng yopiq formasi yashirin predikativlikdir. Bu holatda (gapda na pauza va na spesifik intonasiya mavjud) asosiy gapdan ajraluvchi to'ldiruvchi predikativ kompleksda na pauza, na intonasiya mavjud bo'lmaydi. Yashirin predikativlikda polipropozisionallik saqlanib qoladi, biroq polipredikativlik (yani ko'p kesimlilik) yo'qoladi.

Gap strukturasida mazmun va forma o'zaro bog'liq bo'lsada, ularni yoki mazmun, yoki shakli jihatdan tasniflash mumkin. Shakli nuqtai nazaridan tasniflash:

Formasiga ko'ra gaplarni tasniflaganda, biz ularni ikki sostavlilik, yani ega va kesim nuqtai nazaridan qarab chiqamiz. Qolgan barcha tillar asosiy shaklni qayta hosil qilish oqibatida vujudga keladi.

Buyruq va infinitiv formadagi bir sostavli gaplar kesim bilan munosabatdor:

Niez tout. -Niez quoi ?

Adyektiv bir sostavli gaplar ham gapda kesim vazifasida keladi.
Incroyable !

Nominativ gaplar fe'lli gaplarga qaraganda murakkabroq. Ularni yoki ega bilan yoki kesim bilan qiyoslashadi, yoki ularni ikki sostavli gaplarning bosh bo'laklari bilan umuman qiyoslab bo'lmaydi deb hisoblaydilar. Haqiqatdan ham borliq ma'nosini beruvchi gaplar, asosan agar u *Bruit de pas tres proche* tipidagi tekst ko'rinishida boshlansa bu gapni rasmiy tomondan ham kesimli gapga (*c'est un bruit*) ham ega ; (*un bruit s'étend..*), ham to'ldiruvchiga (*on s'étend un bruit*) taalluqli ekanligi e'tirof etiladi. Bu yerda ega va kesim oppozitsiyasi neytrallashadi va ot bo'linmaslik jarayonini anglatadi.

Aniq ma'nodagi kontekstda nominativ gaplar kesim bilan munosabatda bo'ladi :*-Je t'autorise* bu yerda nominativ gap subyektni tenglashtirishni (identifikatsiyani) ko'rsatadi. Atov otli nominativ gaplar ham kesimga munosabatdor : *Boulangerie. baxo beradigan Quel luxe !*; undaydigan *Patience ! (=soyez patiente)...* Nominativ gapning bosh bo'lagi ot bilan ifodalangan bo'lsa, odatda u kesim vazifasida keladi.

Konkret ot (N) ega vazifasida kelishi mumkin:

- Comment va ta femme?- Très bien.- Et ta fille ?

Bir sostavli gaplarning semantik funksiyasi faqat fe'lli buyruq maylli gaplar morfologik jihatdan shaxs va modallikda ifodalanadi. Bir sostavli gaplarda zamon morfemasi yo'q, ular hozirga yoki yaqin kelasi zamonda qo'llaniladi. Predikativlikning belgisi intonatsiyadir.

Bir sostavli gaplar ma'noning mavhumligi bilan xarakterlanadi. Biroq ma'no qanchalik mavhum bo'lsa, gap shunchalik kontekstda konkret ma'no

ifodalanishini talab etadi. Shuning uchun ham abstraktlik bilan bir sostavli gaplarning boshqa tomoni bog'liq. Bir sostavli gaplar ikki sostavli gaplarning turli xil turlarining ma'nosini ifoda etishi mumkin:

-so'roq yoki istak mayl hohish.-*Contente de votre role? Patience!// Au mur !*

-inkor : *Plus d'autobus, plus de metro.*

Yuqorida ko'rsatib o'tilganidek, bir sostavli gaplar so'zning sintaktik funksiyasini umumlashtiradi : ba'zi bir holatlarda gapning bosh bo'laklaridan biri bilan so'zning asosiy komponentlari orasidagi o'zaro nisbatni aniqlash qiyinchilik tug'diradi. Aktual bo'klarga ajratishga kelsak, bir sostavli gaplar odatda monoremalar, buning ustiga tema va remalar mavjud komponentning ega va kesimga yaqin muvofiqligiga ko'ra taqsimlanadi. Borliqni ifoda etuvchi *L'hiver* tipidagi gaplarda moslashish murakkabdir, chunki uni gapning biror bir bosh bo'lagi bilan qiyoslab bo'lmaydi. Ular –monoremalar, biroq tema va remani ifoda etadimi, bu muammo faqat kontekst mazmuniga bog'liq.

Nominativ gaplar anglatgan ma'noga ko'ra turli tumandir. Ularning konkret mazmuni tayanch otning semantikasi orqali , uning kontekstda boshqa gaplar bilan bog'liqligi va situatsiyaga muvofiqligi orqali aniqlanadi. Nominativ gaplarning birinchi funksiyasi :

- a)predmet va shaxslarni nomlanishi (sarlavha, viveska va hokazo)
- b)mavjudlik, obyektiv borliq ifodasi.

Borliq situatsiyali gaplar mavjud situatsiyani anglatadi, tarkibidagi ot (N) zamonni, atrof muhitni o'rab turgan tabiat holatini, hodisa jarayonni anglatadi : *Le 22 mai... Plein nuit... Eclairages improvisee.*

Borliq predmetli gaplar, predmetning mavjudligini ifodalovchi gaplar tarkibida konkret ot ifodalanadi. *Le 22 avril. Le fort de Vanves. Une salle commune.Plusieurs gardes nationaux.*²³

²³ V.G.Gak . Теоретическая грамматика фр.языка. М.,ВШ.1986 p.164

O'zining ikkinchi funksiyasida ular fe'lli predikativlar bilan bir xil ma'noni anglatadi :a)tenglashtiruvchi yoki tasniflovchi : *Dans les premiers jours de l'annee un enfant naquit. Un fils.*

Identifikasiya (tenglashtirish) ilgari aytilgan fikr mazmunini ochib beruvchi gap guruhida amalga oshirilishi mumkin : *Il y avait a manger partout. Des canards de toutes les couleurs.... de grands cochons de riz... des saucisses crues..., etc.*

Bu nominativ gaplar seriyasi ovqatlanishda nimalar borligini ko'rsatib o'tayapti.

a) tavsiflovchi: *Assassins! Incendiaires!* Bu yerda gap ob'yektni baholayapti, uning darajasini belgilaydi.(N-baholash ma'nosida);

b) jarayonga oid; gap harakat, voqea-hodisani ifodalaydi. Odatda bu funksiyani feldan yasalgan ot (N) bajaradi: *Attente. Lente Avance. Plus d'espoir. Retour a la ville. Cours matinale. Attente devant la grille.*²⁴

Nominativ gaplar ish-harakatni mavhumroq holatlarda e'tiborni shu so'zga jamlab tasvirlashi mumkin. (qiyoslaymiz : *J'attends ; On attend* va *Attente*)

Jarayonlilik « to'satdan » ma'nosini beruvchi holni ta'kidlab keladi : *Brusquement, une alerte.*

Jarayonlilik konkret otlar bilan ham ifodalanishi mumkin. Unda voqealar zanjiri ketma-ketlikda sodir bo'ladi. Masalan, Languning Rojdestvo kechasi klinika bo'ylab qilgan sayohati: *Portes. Couloirs de cloitre. Portes. Cles. « Bon Noël, monsieur le medecin-chefs ». Creches . Briques et sapins. Paroles confuses en flamand, rumeurs etrangeres ».*

Nominativ gaplar ish-harakat va ikki konstruksiya yordamida konkret situatsiyani ifodalashi mumkin:

a)bosh bo'lak-bosh bo'lakka tobe, so'z bilan ifodalangan sub'yekt harakatni ifodalovchi fe'ldan yasalgan ot : *Aucun reaction dans la troupe ;*

²⁴ . V.G.Gak . Теоретическая грамматика фр.языка. Синтаксис.М.,1986 p.164

b) bosh bo'lak-bosh bo'lakka tegishli sifatdosh yoki ergashgan qo'shma gap bilan ifodalangan konkret ma'noni beruvchi sub'yekt(N) ; *La bas, le quai de ble* ;

